

平成25年度言語研修  
ウズベク語研修テキスト 2

O‘zbekcha O‘qish Kitobi

ウズベク語リーダー

Reader of the Uzbek Language

Jo‘liboy ELTAZAROV, Zarnigor DONABOYEVA

東京外国語大学  
アジア・アフリカ言語文化研究所

2013





## **MUNDARIJA**

Mundarija .....	i
Kirish .....	ii
O‘zbek Lotin alfaviti (1993) .....	1
I BO‘LIM. MAKTAB HAYOTI .....	2
II BO‘LIM. FASLLAR, OYLAR VA BAYRAMLAR .....	14
III BO‘LIM. OILA HAYOTI .....	25
IV BO‘LIM. O‘ZBEKISTON .....	34
V BO‘LIM. TABIAT, O‘SIMLIK VA HAYVONOT DUNYOSI .....	44
VI BO‘LIM. SPORT VA SOG‘LIK-SALOMATLIK .....	51
VII BO‘LIM. FANLAR .....	59

## KIRISH

Hozirgi O‘zbek tili Oltoy tillari oilasi, Turkiy tillar guruhining Qarluq-uyg‘ur tillari shaxobchasiga mansub bo‘lib, u qadimiy adabiy til an’analariga ega tildir. O‘zbek tili mustaqil adabiy til sifatida 11-12 asrlarda shakllangan. Eski O‘zbek adabiy tilida O‘rta Osiyo va jahon sivilizatsiyasining eng mashhur asarlari, jumladan, Ahmad Yassaviyning ‘Hikmatlar’, Alisher Navoiyning ‘Xamsa’, ‘Xazoyinul maoniy’, ‘Muhokamatul lug‘atayn’, ‘Majolisun nafois’, Zahiriddin Muhammad Boburning ‘Boburnoma’, Abulg‘ozzi Bahodirxonning ‘Shajarai Turk’ va ‘Shajarai tarokima’ asarlari yozilgandir. Eski O‘zbek adabiy tilining shakllanishida buyuk olim va mutafakkir Alisher Navoiyning xizmatlari kattadir.

Eski O‘zbek adabiy tili arab ve fors adabiy tillari bilan bir qatorda musulmon Sharqida amalda bo‘lgan sanoqli adabiy tillardan biridir.

Yangi O‘zbek adabiy tili 20-asr boshlarida shakllangan. Yangi O‘zbek adabiy tiliga Toshkent-Farg‘ona shevalari asos qilib olingan.

20-asrda O‘zbek adabiy tili gurkirab rivojlandi. Bu tilda zamonaviy adabiyot va san’at, kino va teatr asarlari yaratildi. Zamonaviy fan va texnika terminlari tizimi shakllandi.

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tilidir. O‘zbekistonda ijtimoiy hayot va iqtisodning barcha sohalarida O‘zbek tili ustivor holda qo‘llaniladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin O‘zbek tili dunyodagi ko‘pgina mamlakatlarda o‘rganila boshlandi, jumladan Yaponiyaning bir necha universitetlarida ham O‘zbek tili o‘qitilmoqda.

Qo‘lingizdagи ‘O‘qish kitobi’da hayot va bilimning turli sohalariga oid bo‘lgan matnlar kiritilgan. Bu matnlarda O‘zbek tilidagi maktab va universitet hayotiga, oylar va fasllarga, oila hayotiga, O‘zbekiston mamlakatining tarixi va buguniga, tabiat, o‘simgilik va hayvonot dunyosiga, O‘zbekistondagi bayramlar va O‘zbek xalqining madaniyati, san’atiga, sog‘liq-salomatlik va sportga doir ma’lumotlar bilan tanishishingiz mumkin. Matnlar soddallashtirilgan til bilan bayon qilingandir.

Bu matnlarni o‘qib-o‘rganganda turli sohalarga oid maxsus so‘z va terminlarga duch kelasiz, ularni ma’nosini anglab olsangiz va eslab qolsangiz, O‘zbek tilini o‘rganishning keyingi bosqichida Sizga yordami tegadi.

Yaponiyalik O‘zbek tili ixlosmandlari va talaba-yoshlarga tilimizni o‘rganishda muvaffaqiyat tilaymiz va ushbu kitob ularga O‘zbekcha o‘rganishda qo‘l kelishiga ishonamiz.

*Prof.Dr. Jo ‘liboy Eltazarov  
Zarnigor Donaboyeva  
Samarqand, Iyun, 2013*

## O‘zbek Lotin alfaviti (1993)

<i>Harf</i>	<i>O‘qilishi</i>	<i>Harf</i>	<i>O‘qilishi</i>
A a	a	R r	re
B b	be	S s	es
D d	de	T t	te
E e	e	U u	u
F f	ef	V v	ve
G g	ge	X x	xa
H h	he	Y y	ye
I i	i	Z z	ze
J j	je	O‘ o‘	o‘
K k	ka	G‘ g‘	g‘e
L l	el	Sh sh	she
M m	em	Ch ch	che
N n	en	Ng ng	nge
O o	o	(‘)	tutuq
P p	pe		belgisi
Q q	qa		

## I- BO'LIM.

### MAKTAB HAYOTI

#### **Bu nima?**

Bu – maktab. Bu – kitob. Bu – qalam. Bu – daftar. Bu – o‘chirg‘ich. Bu – parta. Bu – ko‘cha. Bu – avtobus. Bu – eshik. Bu – deraza. Bu – doska. Bu – non. Bu – suv. Bu – uzum. Bu – choy. Bu – kofe.

#### **Bu kim?**

Bu – men. Bu – otam. Bu – onam. Bu – dadam. Bu – ayam. Bu – bobom. Bu – buvim. Bu – ukam. Bu – akam. Bu – opam. Bu – singlim. Bu – Ahmad. Bu – Nargiza. Bu – o‘rtog‘im (do‘stim). Bu – dugonam. Bu – sinfdoshim. Bu – qo‘shnimiz. Bu – qiz. Bu – yigit.

#### **Mana bu nima?**

#### **Ana bu nima?**

#### **Ana u (anovi) nima?**

Bu – meva. Bu – uzum. Bu – olma. Bu – nok. Bu – sut. Bu – kolbasa. Bu – pishloq. Bu – yog‘. Bu – shakar. Bu – tvorog. Bu – qurut.

#### **Mana bu kim?**

#### **Ana bu kim?**

#### **Ana u (anovi) kim?**

U – oqituvchi. U – o‘quvchi. U – xolam. U – tog‘am. U – ammam. U – amakim. U – milisyoner. U – professor. U – bola.

#### **Bular kimlar?**

Bular – o‘quvchilar. Bular – talabalar. Bular – bolalar. Bular – qizlar. Bular – yigitlar. Bular – shofyorlar. Bular – ishchilar. Bular – odamlar. Bular – mehmonlar.

#### **Bular nimalar?**

Bular – daftarlari. Bular – kitoblar. Bular – pullar. Bular – qishloqlar. Bular – shaharlar. Bular – ko‘chalar. Bular – daraxtlar. Bular- mashinalar.

\*\*\*\*\*

Mana un. Ana tut. Mana uzum. Ana sut. Mana bitta kitob. Ana bitta xat. Mana kofe. Ana sok. Mana bu – gazeta. Mana bu – telefon. Ana o‘qituvchi. Ana talaba.

Mana Nafisa. Ana Karim. Bu – qush. Ana maktab. Maktab katta. Mana ikkita qalam. Ana ikkita qush.

- Bu kim? – Bu talaba.
- Bu kim? – Bu o‘qituvchi.

Mana surat. Bu surat katta. Mana maktab. Bu maktab ham katta. Mana bitta parta. Ana ikkkita qush. Mana ikkita xat. Ana bitta qiz. Ana ikkita yigit.

Mana bitta olma. Ana ikkita non. Ana katta soat. Ana katta uy. Mana bitta kitob. Bu kitob kichkina. Mana bu ip. Ana igna. Bu igna kichkina.

Mana ikkita deraza. Bitta deraza kichik. Bitta deraza katta.  
Ana ikkita daraxt. Bitta daraxt uzun. Bitta daraxt qisqa.

Bu yerda stol, stul, doska bor. Latta ham shu yerda. Doska katta. Stol ham katta. Doska toza. Latta ham toza. Bu yerda nechta stol bor? Uchta stol bor. Nechta stul bor? Oltita stul bor.

Bu kishi – ishchi. Bu kishilar ham ishchi. Bu kishi – o‘qituvchi. Mana bu kishilar – o‘qituvchilar. Ana u kishi – turist. U kishilar ham turist.

Bu – deraza. Bular – derazalar. Bu derazalar kichkina. Bu ko‘cha. Bu – ko‘chalar. Bu ko‘chalar katta.

Bu – olma. Mana bu olmalar. Bu olmalar shirin.

## O’ZBEKCHADA SONLAR

0	nol	10	o‘n	20	yigirma
1	bir	11	o‘n bir	30	o‘ttiz
2	ikki	12	o‘n ikki	40	qirq
3	uch	13	o‘n uch	50	ellik
4	to‘rt	14	o‘n to‘rt	60	oltmish
5	besh	15	o‘n besh	70	yetmish
6	olti	16	o‘n olti	80	sakson
7	yetti	17	o‘n yetti	90	to‘qson
8	sakkiz	18	o‘n sakkiz	100	yuz
9	to‘qqiz	19	o‘n to‘qqiz	1000	ming

\*\*\*\*\*

Bu sinfda o‘nta talaba bor. Bu sinfda necha kishi bor? Ikki talaba – qiz bolalar. Sakkizta talaba esa – o‘g‘il bolalar.

Bu yerda yetti kishi bor. Bu yerda necha kishi bor? Uch kishi – ishchi. Besh kishi – xizmatchidir. Ular ishlayaptilar.

U yerda o‘n ikkita kishi bor. U kishilar – dehqon. Ular ham ishlayaptilar. Ular paxta terayaptilar.

Oilada oltita bola bor. Ikkita bola – o‘g‘il. To‘rtta farzand – qiz. O‘g‘illar katta yoshda. Qizlar kichik yoshda.

Mana maydon. Bu maydon katta. Bu maydon chiroyli.

Ana katta uy. U uy ham chiroyli.

Ana bitta eshik. U eshik katta.

Mana sumka. Bu sumka katta. Sumkada kitoblar bor. Kitoblarning soni – uchta. Sumkada daftarlar ham bor. Ular chiroyli daftarlar. Sumkada ikkita daftar bor.

Ana uchta daraxt. Bitta daraxt – olma. Ikkita daraxt olma emas. Ikkita daraxt – terak.

Ana yettita rasm. Ikkita rasm katta. Beshta rasm katta emas. Beshta rasm kichik. Bu rasmlar chiroyli.

Mana gul. Bu gul chiroyli. Ana u gullar ham chiroyli.

Ana o‘nta gilam. Bu gilamlar yaxshi. Ana o‘nta gilam. Oltita gilam katta. To‘rtta gilam kichik. Katta gilamlar chiroyli. Kichkina gilamlar ham chiroyli.

Mana Gulgora. Ana Otabek. Ana Erkin. Mana Oygul. Ular suhbatlashayaptilar.

## BIZ SANAYAPMIZ

**O‘qituvchi:** Bolalar, bu necha?

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
---	---	---	---	---	---	---	---	---	----

Oybek, sen sana!

**Oybek:** Bu – bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n.

**O‘qituvchi:** Yaxshi, Oybek, o‘tir. Bu necha?

11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
----	----	----	----	----	----	----	----	----	----

Karim, sen sana!

**Karim:** Bu – o‘n bir, o‘n ikki, o‘n uch, o‘n to‘rt, o‘n besh, o‘n olti, o‘n yetti, o‘n sakkiz, o‘n to‘qqiz, yigirma.

**O‘qituvchi:** Juda yaxshi, Karim, sen o‘tir.

21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
----	----	----	----	----	----	----	----	----	----

Jamila, sen yigirma birdan o‘ttizgacha sana.

**Jamila:** Bu – yigirma bir, yigirma ikki, yigirma uch, yigirma to‘rt, yigirma besh, yigirma olti, yigirma yetti, yigirma sakkiz, yigirma to‘qqiz, o‘ttiz.

**O‘qituvchi:** Yaxshi, Jamila, o‘tir. Obid, sen o‘ttiz birdan qirqqacha sana.

**31** **32** **33** **34** **35** **36** **37** **38** **39** **40**

**Obid:** Bu – o‘ttiz bir, o‘ttiz ikki, o‘ttiz uch, o‘ttiz to‘rt, o‘ttiz besh, o‘ttiz olti, o‘ttiz yetti, o‘ttiz sakkiz, o‘ttiz to‘qqiz, qirq.

**O‘qituvchi:** Yaxshi, Obid, sen o‘tir.

**41** **42** **43** **44** **45** **46** **47** **48** **49** **50**

Zamira, sen qirq birdan ellikkacha sana.

**Zamira:** Bu – qirq bir, qirq ikki, qirq uch, qirq to‘rt, qirq besh, qirq olti, qirq yetti, qirq sakkiz, qirq to‘qqiz, ellik.

**O‘qituvchi:** Juda yaxshi. Zamira, o‘tir. Mahmud, sen doskaga chiq va yoz! Shkafda o‘nta chizg‘ich, yigirmata ruchka, o‘ttizta kitob, qirqta qalam va ellikta daftар bor. Bolalar, Sizlar ham yozinglar.

## SINF

Mana katta xona. Bu xona – sinf. Sinfda stol, stul, doska bor. Sinfda partalar bor. Bu sinfda bir nechta shkaf ham bor. Shkaflarda kitoblar, daftarlar, ruchkalar bor. Doskada bo‘r bor. Latta ham bor. Bu sinf katta. Sinf toza.

- Bu xona kattami?
- Ha, bu xona katta.
- Bu xona sinfmi?
- Ha, bu xona sinf.
- Bu xonada nechta eshik bor?
- Bitta eshik bor.
- Nechta deraza bor?
- To’rtta deraza bor.
- Bolalar sinfdami?
- Bolalar sinfda emas.

## KIM NIMA QILMOQCHI?

Biz o‘zbek tilini o‘rganmoqchimiz. Keyin O‘zbekistonga safarga bormoqchimiz. O‘zbek xalqi hayoti va madaniyati bilan tanishmoqchimiz. O‘zbek taomlaridan yemoqchimiz.

Takao bir chiroyli o‘zbek qiz bilan do‘sst bo‘lmoqchi va unga uylanmoqchi. Lee xonim Toshkentda o‘z qarindoshlarini topmoqchi. Hiroshi esa yaxshi o‘zbek tili mutaxasisi bo‘lmoqchi. Bular – yaxshi orzular. Shunday emasmi?

## **QALAMDON**

Mana qalam. Bu qalam qora. U qalam qora emas. Mana qalamdon. Bu qalamdon yaxshi. Qalamdonda beshta ruchka bor. Ikkita qalam ham bor.

- Bu qalam qorami?
- Ha, bu qalam qora.
- U qalam-chi?
- U qalam qora emas.
- Bu qalamdon qanday? Yaxshimi?
- Ha, bu qalamdon yaxshi.
- Qalamdonda nechta ruchka bor? Sanang!
- Bir, ikki, uch, to‘rt, besh. Qalamdonda beshta ruchka bor.
- Nechta qalam bor?
- Ikkita qalam bor.

## **QAYERDASIZ VA NIMA QILAYAPSIZ?**

Bolalar qayerda? Ular sinfda. Ular o‘qiyaptilar. Karim kitob o‘qiyapti. Kamola gazeta o‘qiyapti. Sanobar xat o‘qiyapti.

- Karim, sen qayerdasan?
- Sinfdaman.
- Nima o‘qiyapsan?
- Kitob o‘qiyapman.
- Kamola, sen qayerdasan?
- Men ham sinfdaman.
- Sen nima o‘qiyapsan?
- Gazeta o‘qiyapman.
- Sanobar nima o‘qiyapti?
- U xat o‘qiyapti.

Talabalar oshxonada. Ular ovqat yeyaptilar va suhbat qilayaptilar. Hikmat palov yeyapti. Nazira sho‘rva ichmoqda. Eshmat va Toshmat bufetda choy ichayaptilar. Xursand bu yerda qahva ichayapti. Salim shirinlik yemoqda. Mashhura meva yeyapti.

Talabalar imtihonlar haqida gaplashayaptilar. Yaqinda universitetda qishki semestr imtihonlari boshlanadi. Imtihonlarga yaxshi tayyorlanish kerak.

## DARS

Mana uchinchi sinf. Bu sinfda hozir o‘zbek tili darsi. O‘quvchilar o‘zbek tilini o‘rganayaptilar. O‘qituvchi savol berayapti. O‘quvchilar javob berayaptilar. Ular yaxshi javob berayaptilar. O‘quvchilar o‘zbek tilini yaxshi o‘rganayaptilar.

-Bu nechanchi sinf?

-O‘zbek tilini kimlar o‘rganayaptilar?

- Kim savol berayapti?

- Kimlar javob berayaptilar?

- O‘quvchilar yaxshi javob berayaptilarimi?

## TANAFFUS

Hozir tanaffus. O‘quvchilar hovliga chiqayaptilar. Mana bu bolalar zalda shaxmat o‘ynayaptilar. Ikkita qiz skameykada dam olayapti. Bitta bola ham dam olayapti. Ular suhbatlashayaptilar.

Navbatchilar tanaffusda ishlayaptilar. Ular derazalarni ochayaptilar. Doskani artayaptilar. Bo‘r va lattani tayyorlab qo‘yayaptilar. Navbatchilar yaxshi ishlayaptilar.

## MAKTAB HOVLISI

Mana katta hovli. Bu hovli – maktab hovlisi. Maktab hovlisi keng, toza va chiroqli. Maktab hovlisida teraklar va boshqa daraxtlar bor. Hovlida gullar ham ko‘p. Gullar juda chiroqli. Maktab hovlisida sport maydonchasi ham bor.

Hozir tanaffus. Tanaffusda maktab hovlisida ba’zi o‘quvchilar o‘ynayaptilar, ba’zi o‘quvchilar kitob o‘qiyaptilar. Ba’zi o‘quvchilar suhbatlashayaptilar. O‘quvchilar maktab hovlisida dam olayaptilar.

## **BUFET**

Mana bufet. Ana bufetchi. Bufetda non, sariyog‘, qand, choy, sut, kofe, har xil bulkalar, pechenyelar va konfetlar bor.

Hozir tanaffus. Bufetda o‘quvchilar ko‘p. Ular non, sariyog‘, bulkalar va konfetlar olayaptilar. Ba’zi o‘quvchilar choy va kofe ichayaptilar. Sariyog‘ va non yeyaptilar. Ba’zilari esa sut ichayaptilar. Bulka, pechenye yeyaptilar.

Bufetchi tez va yaxshi ishlayapti.

## **RANGLI QALAMLAR**

Bahrom rasm chizishni yaxshi ko‘radi. Uning katta qalamdonida oq, qora, qizil, sariq, yashil, ko‘k, jigarrang qalamlar bor. Bahromning rasm daftari ham bor.

Bahrom yulduz rasmini chizadi va uni qizil rangga bo‘yaydi. U archa rasmini chizadi va uni yashil rangga bo‘yaydi. Bahrom qorli tog‘larning rasmini chizadi va tog‘larni oq rangga bo‘yaydi. Bahrom tog‘lar ustida quyosh rasmini chizadi va uni sariq rangga bo‘yaydi. Quyoshning atrofidagi bo‘shliqni ko‘k rangga bo‘yaydi. Chunki osmonning rangi moviy (ko‘k).

Ayting-chi, agar Bahrom qand rasmini chizsa uni qanday rangga bo‘yashi kerak?

Agar Bahrom doska rasmini chizsa uni qanday rangga bo‘yashi kerak?

Agar Bahrom gul rasmini chizsa uni qanday rangga bo‘yashi kerak?

Agar Bahrom barg rasmini chizsa uni qanday rangga bo‘yashi kerak?

## **SAIDNING BIR KUNI**

Said – universitet talabasi. U har kuni darsga borishi kerak. U ertalab soat 7 da uyg‘onishi kerak. Soat yetti yarimgacha yuvinishi va kiyinishi kerak. Soat sakkizgacha nonushta qilishi kerak. Sakkizda yo‘lga chiqishi lozim. Sakkizdan o‘n besh minut o‘tganda avtobusga minishi, sakkizdan qirq minut o‘tganda undan tushishi kerak. Keyin piyoda o‘n daqiqa yurishi kerak. Soat o‘nta kam to‘qqizda u sinfga kirishi va o‘rtoqlari bilan salomlashishi kerak. Said darsga kechikmasligi kerak. U dars qoldirmasligi kerak. Professorlardan tanbeh eshitmasligi kerak. Yaxshi talaba aslo bunday qilmasligi kerak.

## **TALABANING BIR HAFTASI**

Akbar Nurmatov Samarqand universiteti Filologiya fakultetining 4-kursida o‘qiydi.

U dushanba kuni O‘zbek tili darslariga boradi.  
Seshanba kuni O‘zbek adabiyoti darslariga boradi.  
Chorshanba kuni tarix va falsafa darslariga boradi.  
Payshanba kuni komputer va multimediya darslariga boradi.  
Juma kuni professordan maslahatlar oladi.  
Shanba kuni kutubxonada dars tayyorlaydi.  
Yakshanba kuni dam oladi.

## **STOLDA NECHTA TARELKA VA QOSHIQ BOR?**

Mana maktab oshxonasi. Maktab oshxonasi keng va yorug‘. Bu yerda o‘quvchilar uchun turli ovqatlar pishiriladi. Katta tanaffusda oshxonadagi stollarning ustiga idish-tovoqlar qo‘yiladi. Bugun 9-sinf o‘quvchilari o‘tiradigan uzun stolga tarelkalar, qoshiqlar, tovoqlar qo‘yilgan.

Hamid, stolda nechta tarelka bor? Stolda to‘qqizta tarelka bor. U tarelkalar sariqmi? U tarelkalar sariq emas. U tarelkalar oq. Oq tarelkalar yaxshimi? Ha, oq tarelkalar yaxshi. Kumush qoshiqlar qayerda? Kumush qoshiqlar ham stolda. Stolda kumush qoshiq bormi? Sanang-chi! Sanayapman: bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n. Stolda o‘nta qoshiq bor.

Stolda yana nima bor? Stolda katta tovoq bor. Tovoqda mevalar bor. Qaysi mevalar bor? Olma, anor, uzum va banan bor. Tovoqda nechta olma bor? Beshta olma bor. Olmalar sariqmi? Yo‘q, olmalar qizil. Anorlar qanday, nordonmi? Yo‘q, anorlar shirin va suvli. Uzumlar qanday, shirinmi? Ha, uzumlar shirin. Tovoqda nechta banan bor? Sakkizta banan bor. Bananlar uzunmi, qisqami? Bananlar uzun. Ular sariqmi, yashilmi? Ular sariq, sap-sariq.

## **O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbekistondagi eng yirik bilim maskanlaridan biri. Uning o‘n oltita fakultetida turli xil mutaxassislar tayyorlanadi. Bu universitetni bitirgan tilshunos, adabiyotshunos, tarixchi, tabiatshunos, o‘lkashunos, siyosatshunos kabi mutaxassislar maktab o‘qituvchilari safiga qo‘shilmoqdalar.

Universitetda o‘qigan iqtisodchi, huquqshunos, kimyogar va boshqa soha mutaxassislari xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida xizmat qilmoqdalar.

## KITOB

Kitob – xazina, bilim boylik. Kitob bir necha ming yil avval paydo bo‘lgan. O‘sha zamonlarda u turli ko‘rinishlarda bo‘lgan. Kitob avval sopol taxtalarga yozilgan. Keyinchalik hayvon terilariga yozib kitob qilishgan. So‘ng ipak matolardan, undan so‘ng qog‘ozdan kitob qilishgan.

Kitoblarning hajmi, shakli ham turlicha bo‘lgan. Balandligi bir yarim metr dan oshadigan kitoblar bo‘lgan. Uni bir kishi ko‘tara olmagan. Shuningdek, juda kichik kitoblar ham bo‘lib, ularning ayrimlari gugurt qutisidek, hatto undan ham ixchamlari mavjud edi.

Kitoblarni bosish ham juda murakkab ish. Buning uchun ko‘p kishilar mehnat qiladilar. Siz va biz uchun chiroyli kitoblar tayyorlaydilar.

Yildan-yilga asta-sekin kitob bosish ishlari takomillashib borgan. Avvallari kitoblar bosmaxonalarda harf terish mashinalarida terilar edi. Endilikda ular komputer yordamida osongina yoziladi. So‘ng bosmaxonaga yuboriladi. Mashinalar varaqlarni taxlaydi va tikadi. Qo‘lingizdagи chiroyli kitoblar murakkab va aqli mashinalar yordamida tayyorlangan.

Bolalar, kitobni asrab, avaylab tuting! Kitob – aql chirog‘i, kitob – bebahо boylik.

### Savol va topshiriqlar

1. Kitob qachon paydo bo‘lgan?
2. Kitoblar avval qanday shakllarda edi, hozir-chi?
3. Kitob tayyorlash ishlari haqida so‘zlab bering.

## SALOMLASHUV

**A:** Assalomu alaykum! (*Salom!*)

**B:** Vaalaykum assalom! (*Salom!*)

**A:** Yaxshimisiz? Ishlar yaxshimi?

**B:** Rahmat. O‘zingiz yaxshimisiz?

**A:** Xudoga shukur. Sog‘ligingiz yaxshimi?

**B:** Rahmat. Shukur.

## TANISHUV

**A:** Assalomu alaykum!

**B:** Vaalaykum assalom!

**A:** Ismingiz (otingiz) nima?

**B:** Ismim Yukiko  
**A:** Familiyangiz-chi?  
**B:** Familiyam – Katori  
**A:** Qayerliksiz?  
**B:** Yaponiyalikman.  
**A:** Siz qayerliksiz?  
**B:** O‘zbekistonlikman. O‘zbekman.  
**A:** Tanishganimdan xursandman.  
**B:** Men ham xursandman.

## NAMUNALAR

**1**

**2**

A: Salom. Ahvollaringiz qalay?	A: Salom. Yaxshimisiz?
B: Rahmat. O‘zingiz yaxshimisiz?	B: Rahmat. O‘zingiz yaxshimisiz?
A: Shukur, yaxshiman. Ismingiz nima?	A: Shukur, yaxshiman. Ismingiz nima?
B: Ismim – Misa	B: Ismim – Oleg
A: Familiyangiz-chi?	A: Familiyangiz-chi?
B: Familiyam – Nagata.	B: Familiyam – Ivanov
A: Qayerliksiz? (Qayerdansiz?)	A: Qayerliksiz? (Qayerdansiz?)
B: Yaponiyalikman.	B: Rossiyalikman. Rusman.
A: Kasbingiz nima?	A: Kasbingiz nima?
B: O‘qituvchiman.	B: Doktorman.
F: Rahmat. Sog‘ bo‘ling.	F: Rahmat. Salomat bo‘ling.

**3**

**4**

A: Assalomu alyakum. Ahvollaringiz qalay?	A: Salom. Ahvollaringiz qalay?
B: Rahmat. O‘zingiz qandaysiz?	B: Rahmat. O‘zingiz tuzukmisiz?
A: Shukur, yaxshiman. Ismingiz nima?	A: Shukur, yaxshiman. Ismingiz nima?
B: Ismim – Ahmet	B: Ismim – Temur
A: Familiyangiz-chi?	A: Familiyangiz-chi?
B: Familiyam – Demir.	B: Familiyam – Shirinov.
A: Qayerliksiz? (Qayerdansiz?)	A: Qayerdansiz?
B: Turkiyadanman. Turkman.	B: Samarqandlikman.
A: Kasbingiz nima?	A: Kasbingiz nima?
B: Biznesmenman.	B: Professorman.
A: Yoshingiz nechada?	A: Yoshingiz nechada?
B: O‘ttizda.	B: Ellik ikkida (52).
A: Rahmat Salomat bo‘ling.	A: Tashakkur. Sog‘ bo‘ling.

## **XAYR, MAKTAB!**

Xayr, maktab, jon maktab!  
Ming rahmat ham senga oz.  
O‘ynagani bizlarni  
Chorlayapti ko‘rkam yoz.  
O‘rmon, dala, tog‘larda  
Dam olishlar juda soz!  
Dam olgani ketamiz  
Xayr, maktab! Salom, yoz!

## **MAQOLLAR, HIKMATLI SO‘ZLAR VA TOPISHMOQLAR**

### **MAQOLLAR**

Avval o‘yla, keyin so‘yla.  
Bugungi ishni ertaga qo‘yma.  
Oz so‘zla – soz so‘zla.  
O‘zi so‘zining so‘zi to‘g‘ri chiqar.  
Ko‘z – qo‘rqoq, qo‘l – botir.  
Arslon izidan qaytmas, yigit – so‘zidan.

### **HIKMATLI SO‘ZLAR**

Aql bilan odob - egizak.  
Aql toshi – inson boshi.  
Dono bilan yursang, dono bo‘lasan,  
Ahmoq bilan yursang, rasvo bo‘lasan.  
Nodon bilan sirdosh bo‘lma.  
Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi,  
Onalar so‘zi – baxtning o‘zi.

## **TOPISHMOQLAR**

Boshi taroq, sumi o‘roq. *(xo‘roz)*

Osti tosh, usti tosh, to‘rt oyoqli bitta bosh. *(toshbaqa)*

Yozda kiyinadi, qishda yechinadi. *(daraxt)*

Rangi oq-u, qor emas,  
Juda yumshoq, par emas. *(paxta)*

## **II- BO‘LIM. FASLLAR**

### **OYLAR VA BAYRAMLAR**

### **OYLAR VA YIL FASLLARI**

**Oylar.** Bir yilda o‘n ikki oy bor:

- |           |            |
|-----------|------------|
| 1. Yanvar | 7. Iyul    |
| 2. Fevral | 8. Avgust  |
| 3. Mart   | 9. Sentabr |
| 4. Aprel  | 10. Oktabr |
| 5. May    | 11. Noyabr |
| 6. Iyun   | 12. Dekabr |

**Fasllar** – qish, bahor, yoz, kuz

1. Dekabr, Yanvar, Fevral oylari – **qish** faslidir.
2. Mart, Aprel, May oylari – **bahor** faslidir.
3. Iyun, Iyul, Avgust oylari – **yoz** faslidir.
4. Sentabr, Oktabr, Noyabr oylari – **kuz** faslidir.

### **FASLLAR**

Bir yilda to‘rt fasl bor.

Qish – sovuq fasl. Qishda qor va yomg‘ir ko‘p yog‘adi. Odamlar qishda ko‘pincha uyda o‘tiradilar.

Bahor – iliq va yog‘inli fasl. Bahorda tabiat uyg‘onadi, daraxtlar gullaydi. Bahor – go‘zallik fasli.

Yoz – issiq fasl. Yozda mevalar pishadi. Yozda o‘quvchilar va talabalar dam oladilar.

Kuz – salqin fasl. Kuzda maktab va universitetlarda darslar boshlanadi.

**Savollarga javob bering:**

1. Qaysi faslda mevalar pishadi?
2. Qaysi faslda yomg‘ir va qor ko‘p yog‘adi?
3. Qaysi faslda maktab va universitetlarda darslar boshlanadi?

## O‘ZBEKISTON BAYRAMLARI

**1-yanvar** – Yangi yil bayrami  
**8-mart** – Xotin-qizlar bayrami  
**21-mart** – Navro‘z bayrami  
**9-may** – Xotira va qadrlash kuni  
**1-sentyabr** – O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni  
**1-oktyabr** – O‘qituvchilar va murabbiylar kuni  
**8-dekabr** – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun  
**Ramazon hayiti** - o‘zgarib turuvchi sana  
**Qurban hayiti** - o‘zgarib turuvchi sana

## ENG ULUG‘, ENG AZIZ AYYOM

Mustaqillik – eng ulug‘, eng aziz ne’mat. Ozodlik, hurriyat, erkinlik. Bu oliy tushunchalarni yurakdan his qilish, anglab yashash – buyuk saodat.

Mustaqillik – xalqimiz uchun erkin, baxtli va farovon, hech kimdan kam bo‘lmagan hayot kechirish imkonini bergani uchun azizdir.

Mustaqillik yurtdoshlarimiz barcha sohalarda o‘z iste’dod va qobiliyatini to‘la namoyon etishi, o‘z huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishi uchun beqiyos imkoniyatlar yaratgani bilan qadrlidir.

Xalqimiz o‘zining eng ulug‘, eng aziz ayyomi – Mustaqillik bayramini har yili zavq va shavq bilan bayram qiladi. Bu go‘zal bayram qalblarimizga cheksiz faxr-iftixor baxsh etadi. Ota-bobolarimizning asriy orzulari ushalgan mazkur tarixiy kun yurtimizning barcha shahar va qishloqlarida keng miqyosda nishonlanadi.

Har yili 31 avgustda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida Vatanimiz mustaqilligi kuniga bag‘ishlangan bayram tantanalari bo‘lib o‘tadi. Bu yerga mamlakatimiz Prezidenti, hukumat a’zolari, Oliy Majlis Senati a’zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, O‘zbekiston Qahramonlari, fan, madaniyat va san’at namoyandalari, ishlab chiqarish ilg‘orlari, tadbirkorlar, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xorijiy davlatlar elchixonalari, xalqaro tashkilotlar vakillari tashrif buyuradilar.

O‘n minglarcha toshkentliklar bayram marosimi va bayram konsertini tomosha qiladilar. Bayram tantanalari televideniye orqali namoyish qilinadi.

Istiqlol bayraming muborak bo‘lsin, ona-O‘zbekistonim!

## **YOZ SOZ O‘TDI**

Yozgi ta’tilda men ukam bilan qishloqda, buvimnikida dam oldim. Buvim kattalarga laganday katta patir non, ukam bilan menga esa kichkina-kichkina shirin kulchalar yopib berar edilar. Ertalab yangi sog‘ilgan sut ichar edik. Tog‘am bilan birga baliq tutgani borar edik. Bir kuni besh kilolik baliq ham tutdik. Bاليقni buvim qovurib berdilar va biz uni non bilan maza qilib yedik.

Buvim nonni e’zozlash va uvol qilmaslik haqida nasihat qildilar. Shunda men buvimga “Non aziz” she’rini aytib berdim:

Non aziz – eng halol,  
Non serob – bemalol,  
Bo‘lmasin non uvol,  
Uvog‘in terib ol!

Bug‘doydir onasi,  
Oltin har donasi,  
Oftobning bolasi,  
Bo‘lmasin non uvol,  
Uvog‘in terib ol.

## **OLTIN KUZ**

Issiq yozdan so‘ng kuz keladi. Kuzda salqin shamollar esa boshlaydi. Daraxt va butalarning barglari sarg‘ayadi va qizg‘ish rangga kiradi. Ular birin-ketin to‘kila boshlaydi.

Kuzda kunlar qisqaradi, tunlar uzayadi. Tez-tez yomg‘ir yog‘adi. Suвлar tiniqlashadi.

Kuzda qushlar issiq o‘lkalarga uchib ketadilar. Chumchuq, chittak, musicha, kaptar kabi qushlar esa o‘lkamizda qishlab qoladilar.

Dalalardagi qurt-qumursqalar inlariga kirib ketadi.

## **DEHQONBOBO**

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonlarda Dehqonbobo yashagan ekan. Dehqonbobo doim odamlarga:

- Barakali bo‘linglar, hosilingiz mo‘l bo‘lsin. To‘q, farovon yashanglar, -deb nasihat qilar ekan.

Dehqonboboning o‘zi esa kun bo‘yi dalada mehnat qilib, kuzda ko‘p meva-cheva va sabzavotlar yig‘ib olar ekan.

Bir kuni Dehqonbobo dalada ishlab yursa, bir kishi tergan paxtalarini boshiga qo‘yib, maza qilib u xlabel yotgan ekan.

- Hoy, birodar, shunday paytda xlabel yotibsiz. Yaqinda qish keladi. Bola-chaqalaringizning to‘q yashashi uchun kuzda harakat qiling, - debdi.

- Otaxon, - debdi u Dehqonboboga qarab, sizga nima? Qarigan chog‘ingizda dam olib yotsangiz-chi?!

Dehqonbobo uning gapidan juda ranjibdi va:

- Kuchim, quvvatim borida insonlarga yordam berishim kerak. Sizga ham shu maslahatni beraman, - debdi.

Haligi kishi o‘z ishidan va gapirgan gapidan uyalib, o‘rnidan turib paxta tera boshlabdi. Buni ko‘rgan Dehqonbobo:

- Balli, bolam, umringdan baraka top, deb duo qilibdilar.

## **HOSIL BAYRAMI**

Sinfimizda hosil bayrami o‘tkazish uchun tayyorlandik. Men Dehqonbobo bo‘ldim. Saida makkajo‘xori bo‘ldi. Doniyor – bug‘doy, Shokir – arpa, Shuhrat – sholi, Dilbar – olma, Guli – nok bo‘lamiz, deyishdi.

- Yana qanday mevalar, sabzavotlar bor? Hammasiga mos qo‘sinq, she’rlar yod olish kerak, - dedi Sobir.

- Men olxo‘ri tilidan she’r aytaman, - dedi Ali.

- Men karam tilidan qo‘sinq aytay, - dedi Gulnoz.

- Baqlajon haqida qo‘sinq bor, men uni aytaqolay, - dedi Sanobar.

Shunday qilib, Hosil bayramini o‘tkazdik. Ko‘p mehmonlar kelishdi. O‘yin-kulgi bo‘ldi. Ko‘rgazmamiz ham chiroyli bo‘ldi.

Endi har yili Hosil bayrami o‘tkazadigan bo‘ldik.

## **Savol va topshiriqlar**

1. Sinfimizda qanday bayram o‘tkazmoqchi bo‘ldik?
2. Kimlar qaysi meva va sabzavotlar tilidan qo‘sish va she’rlar aytdi?
3. Hosil bayrami qanday o‘tdi?
  - Bolalar Hosil bayramiga qanday tayyorgarlik ko‘rgani haqida so‘zlab bering.

## **OQ OLTIN**

Paxta O‘zbekistonimizning milliy boyligi hisoblanadi. Xalqimiz uni “oq oltin” deb ataydi. Chunki paxta oltin kabi qiymatlidir. Paxta mashaqqatli mehnat bilan yetishtiriladi. Shuning uchun uning har tolsi oltinga teng.

Paxtamizni ko‘p mamlakatlar sotib oladi. Korxonalarda qayta ishlanib, undan turli mahsulotlar olinadi. Masalan ip va turli gazlamalar, paxta yog‘i vasovun, tibbiyot mahsulotlari olinadi. Paxtadan uy hayvonlari uchun har xil ozuqalar olinadi.

Avvalo terib olingan xomashyo paxta tozalash zavodlariga topshiriladi. U yerda paxta tozalanadi va quritiladi. Keyinchalik to‘qimachilik fabrikalarida paxtadan ip yigiriladi va gazlamalar to‘qiladi. Trikotaj fabrikalarida esa bu mato va gazlamalardan har xil kiyim-kechaklar va boshqa narsalar tayyorlanadi.

Paxtadan ajratib olingan chigit yog‘-moy zavodlariga jo‘natiladi. U yerda chigitdan yog‘ olinadi. Chigit chiqiti esa chorva uchun yem sifatida qo‘llaniladi.

Aziz bolalar! Ko‘rib turibsizki, paxta haqiqatan qimmatbaho xomashyodir. Shu tufayli uni yig‘ib-terib olishda ota-onalarингизга yordam bering.

## **Savol va topshiriqlar**

1. Xalqimiz nimani oq oltin deb ataydi?
2. Paxtadan qanday mahsulotlar olinadi?
3. Paxtadan qayerda ip-gazlama olinadi va kiyimlar tikiladi?
4. Paxtaning qayta ishlanishi va undan nimalar olinishi haqida so‘zlab bering.

## **BIRINCHI TERIM**

Bu yil paxta terimi avgust oyining oxirida boshlandi. Hamma paxtazorga chiqdi. O'sha kuni terimchilar juda xursand edilar. Darsdan keyin men ham sinfdoshlarim bilan yordamga bordik. Oppoq paxtalarni terishga qiziqdik. Paxta hosili mo'l bo'lgan ekan. Har g'ozada 15-20 tadan ko'sak bor edi. Anvar, Dilnoza, Mansur, Nodira va men paxta terishga kirishdik.

Biz paxtani tez va toza terdik. Jamoa rahbari Komil aka bizga: "Barakalla, bolalar, barakalla", – dedi. Biz g'ayrat bilan ishladik va ko'p paxta terdik. Birinchi paxta karvoni paxta zavodiga yo'l oldi.

## **PAXTA TERIMI**

Oq paxtalar ochildi,  
Tezroq tering, o'rtoqlar.  
Paxta nobud bo'lmasin,  
G'ayrat qiling, o'rtoqlar.

Paxta tersang toza ter,  
Chanog'ida qolmasin!  
Bir gram ham paxtamiz,  
Sira nobud bo'lmasin!

Paxtalar chaman-chaman,  
Toza qilib teraman,  
Oq oltinni tergani,  
Bor kuchimni beraman.

## **SOAT FARQLARI**

Toshkent bilan Vashingtonning soat farqi – 8 soat. Toshkentda tong otayotganda, Vashingtonda kech tushayotgan bo'ladi. Toshkentda yangi kun boshlanayotganda, Vashingtonda "kechagi kun" tugayotgan bo'ladi.

Toshkent bilan Yaponiyaning soat farqi – 4 soat. Toshkentda tong otganda, Yaponiyada odamlar allaqachon 2-3 soat ishlagan bo‘ladilar. Yaponlar tushlik qilayotganda, Toshkentda odamlar ishga kelayotgan bo‘lishadi. Toshkentda odamlar ishdan qaytayotganda, Yaponiyadagi uyqusevarlar uxlagan bo‘ladilar.

Toshkent bilan Turkiyaning soat farqi – 3 soat. Toshkentda odamlar ishga kelayotganda, Turklar endigina uyg‘ongan bo‘ladilar. Toshkentda tushlik tanaffus boshlanganda, Istanbulda odamlar ishga keladilar.

## **ARCHA BAYRAMI**

Bugun archa bayrami. Maktabda bolalar ko‘p. Mana archa. Archa katta. Archa chiroyli. Archada o‘yinchoqlar ko‘p. Ana Qorbobo. Mana bolalar. Ular o‘ynayaptilar. Mana Manzura o‘ynayapti. Ana Hamid o‘ynayapti. Manzura yaxshi o‘ynayapti. Hamid ham yaxshi o‘ynayapti.

## **QORBO‘RON O‘YINI**

Qish fasli keldi. Kunlar sovidi. Kecha qor yog‘di. Hamma yoq oppoq bo‘ldi. Ana, bolalar hovliga chiqishdi. Ular qishki kiyimlarini kiyishgan. Cunki, sovqotib, shamollahslari mumkin. Qo‘llarida qo‘lqoplari bor.

Ana, Lola chanasini tortib ko‘chaga chiqdi. Abror oyog‘iga konkisini bog‘lagan. Nodir bilan Nargiza qorbobo yasashyapti. Men ham hozir o‘ynamoqchiman. Oyimdan ruxsat olib hovliga chiqaman. Ayting-chi, men qanday o‘yin o‘ynay?

Eng yaxshisi – qorbo‘ron o‘ynash. Qorbo‘ron o‘ynash uchun bolalar ikki guruhga ajraladi. Qordan yumaloq o‘qlar yasashadi. So‘ngra bir-biriga qor otishadi. Qor borib tekkan o‘yinchi o‘yindan chiqadi.

Men bolalarni chaqirdim. Qorbo‘ron o‘ynashga kelishdik. Men, Nodir, Nargiza bir komanda bo‘ldik. Abror, Lola va Hakim bizning raqiblarimiz bo‘ldi.

So‘ng o‘yin boshlandi. Bir-birimizga o‘q ota-ota charchadik. Qariyb 1 soat davom etgan o‘yinda biz g‘olib chiqdik.

## **GO‘ZALLIK FASLI**

O‘lkamizga bahor keldi. Tog‘larda qorlar erib ketdi. Dalalarda maysalar ko‘kardi. Boychechaklar ochildi. Daraxtlar kurtak yoza boshladи. Bodom va o‘rik daraxtlari oppoq bo‘lib gulladi. Bog‘larda qushlar sayradi. Qo‘y-qo‘zilar yaylovga chiqdi. Dalalarda dehqonlar yer haydab, ekin eka boshladilar. Tabiatda ham o‘zgarish bo‘ldi. Osmonda quyosh charaqladi. Tez-tez yom‘ir yog‘di.

Bahorda turli bayramlar o‘tkaziladi. Ayniqsa, “Gullar bayrami” tanlovi bizga juda yoqadi. Sinfimiz o‘quvchilari bu tadbirda faol qatnashadi. Dugonalarim Lola, Ozoda va Sitora har xil gullar o‘stiradilar. Tanlovda gullarning turi, navi, rangi va boshqa belgilari haqida savollar beriladi. Bahor va gullar haqida she’r, qo‘shiqlar aytib beramiz.

Siz gullar haqida nimalarni bilasiz? Botanika darslarida olgan bilimlaringizni eslab ko‘ring-chi!

## **8- MART**

8-Mart – Xotin-qizlar bayrami. Bahorning birinchi kunlarida keladigan bu bayramning o‘rni boshqacha. Bu bayramda barcha bolalar o‘z buvijonlari, oyijonlari, opa-singillari va o‘qituvchilarini tabriklaydilar. Ularga gul va turli sovg‘alar beradilar. Bugun maktabimizda katta bayram. Bu bayramga buvijonlar ham taklif etilgan. Ular uchun o‘quvchilar she’rlar aytishdi, qo‘shiqlar kuylashdi, sovg‘alar berishdi.

Uyda esa biz adam bilan buvim, oyim va singlim uchun qirmizi chinnigullar guldaстasi sotib oldik. Dadam uchta chiroyli ro‘mol oldi va ularni gullar bilan birga buvim, oyim va singlimga berdik. Ular juda xursand bo‘lishdi. Buvim hatto ko‘z yoshi ham qildi.

Magazindan juda katta tort ham oldik. Uni bayram ziyoфatidan keyin kesib yedik.

## **NAVRO‘Z**

Bahor fasli bayramlarga boy fasldir. Navro‘zi olam ham bahor fasliga to‘g‘ri keladi. Navro‘z qadimiy bayramlardan biri. Navro‘zda hovli va ko‘chalar tozalanib, tartibga keltiriladi. Hamma yodqa bayram tantanalari o‘tkaziladi. Navro‘z bayramida sumalak, halim kabi bahor taomlari pishiriladi. Bemor va keksalarning holidan xabar olinadi. O‘sha kuni yaxshi niyat bilan dalalarga urug‘ sochiladi.

Yurtimizda 21-mart Navro‘z umumxalq bayrami deb e’lon qilingan. O‘zbekistonning har bir shahar va qishlog‘ida bu kun xalq sayllari bo‘lib o‘tadi. Qiziqrarli o‘yin va musobaqalar o‘tkaziladi. Navro‘zni biz ham qizg‘in nishonlaymiz.

Shuning uchun bu bayram bizga juda yoqadi. Bayramdan keyin bahorgi ta’tilga chiqamiz va maza qilib dam olamiz.

## **YANGI YIL RAMZI**

Yam-yashil, xushbo‘y archa qadimdan mangulik, mardlik va jasorat ramzi hisoblanadi. Chunki u jazirama issiqda ham, qahraton sovuqda ham yashnab turaveradi. Qadimda kishilar bu daraxtda barcha o‘simpliklar, hayvonlar, parandalarni qo‘riqlovchi o‘rmon ruhi yashaydi deb ishonganlar. Qadimgi kishilar yangi yil oldidan archa yonida majlis qilganlar. Keyinchalik bu odat gollandiyalik va ingilizlarga ham o‘tgan.

Rossiyada archa yasatishni Pyotr I maxsus buyruq bilan joriy qilgan. U 1700-yil 1-yanvar kuni hamma uylarda archa yasatishga farmon bergen.

Archa o‘smaydigan issiq mamlakatlarda aholi yangi yilni doim yam-yashil bo‘lib turadigan boshqa o‘simpliklar bilan almashtiradi.

Masalan, Viyetnamda yangi yilda uylarni shaftoli daraxtlari, Yaponiyada esa matonat, uzoq umr va tez o‘sish ramzi bo‘lgan bambuk daraxti shoxlari bilan bezaydilar. Shu bilan bir qatorda, qarag‘ay daraxti shoxlari bilan ham yangi yilni kutish mumkin.

Bizda ham yangi yil, butun dunyo mamlakatlaridagi kabi yilning birinchi kuni nishonlanib, tog‘larimizda o‘sadigan, qishda ham yam-yashil turadigan archa bezatiladi.

Ammo qadimiy udumlarimizga binoan haqiqiy yangi yil 21-martda Navro‘z bayramida kutib olinadi.

### **BAHOR KELDI**

Keldi bahor, gul bahor  
Erib bitdi oppoq qor.  
Uchib keldi qushlarjon,  
Daraxtlar taqdi marjon.

Suvlar oqar shildirab,  
Yulduz boqar mildirab,  
Chumolilar yayrashar,  
Sho‘x bulbullar sayrashar.

Endi ilk sof navbahor,  
Chunki bizda gul bahor.  
Bog‘da qizil lolalar,  
Terib oling bolalar.

### **ONAJONLAR BAYRAMI**

Siz dunyoda tengi yo‘q,  
Mehribonsiz onajon.  
Dasta-dasta gul tutay,  
Ko‘p yashang, bo‘ling omon.

Sakkizinchi Mart bugun –  
Onajonlar bayrami.  
Yo‘llariga poyandoz –  
Dasta gullar boylami.

## **MAQOLLAR**

Yoz mevasi — qish xazinasi.

Yoz da yopinchig‘ingni qo‘yma, qishda o‘zing bilasan.

Yilning yaxshi kelishi bahordan ma‘lum.

Kuzning bir kuni qishning bir oyini boqar.

Kun g‘amini sahar ye,  
Yil g‘amini bahor ye.

## **HIKMATLI SO‘ZLAR**

Toza havo — dardga davo.

Er tug‘ilsa — elning baxti,  
Yomg‘ir yog‘sa — yerning baxti.

Hayvonlar - bizning kichik do‘stlarimiz.

### **III BO‘LIM**

#### **OILA HAYOTI**

#### **OILAMIZ**

Bizning oilamiz yetti kishidan iborat. Dadam – tilshunos, u shahrimizdagi universitetda ishlaydi.

Oyim – doktor, u shifoxonada ishlaydi.

Akam – talaba. U universitetda o‘qiydi. Nazira opam bog‘chada tarbiyachi bo‘lib ishlaydi. Opam bolalarga o‘zbek va rus tillarini o‘rgatadi. Bobom – bog‘bon, buvim tikuvchi bo‘lganlar. Men oltinchi sinfda o‘qiyan.

Mening dadam – katta olim. U universitetda talabalarga til va adabiyotdan dars beradi, kitoblar yozadi. Uyda esa u buvimga o‘g‘il, onamga himoyachi, yordamchi, do‘sit, bizga – ota. Sening dadang-chi?

Mening onam – doktor, Uyda esa ovqat pishiradi, kir yuvadi, dazmol qiladi, uy tozalaydi. U dadamga do‘sit va yordamchi, bizga esa – tarbiyachi. Sening oying-chi?

#### **HOVLI**

Mana hovli. Bu hovli juda keng. Chap tomonda ayvon va yo‘lak bor. O‘ng tomonda ariq bor. Ariqda suv oqayapti. Hovlida teraklar va boshqa daraxtlar bor.

Hozir hovlida oltita bola o‘ynayapti. Ular voleybol o‘ynayaptilar. Chap tomonda Davlat, Gavhar, Shahlo va Sergey o‘ynayaptilar. O‘ng tomonda Gulsum, Davron, Otobek va Misha o‘ynamoqda.

#### **TARJIMAI HOL**

Men, Donaboyev Oybek, 1992-yil 25-mayda Samarqand shahrida ziyoli oilasida tug‘ilganman.

Otam – Eltazarov Jo‘liboy, 1960-yilda tug‘ilgan. U Samarqand davlat universitetida professor bo‘lib ishlaydi.

Onam – Eltazarova Gulnora, 1965-yilda tug‘ilgan. U tug‘ruqxonada doktor bo‘lib ishlaydi.

Singlim – Donaboyeva Zarnigor, 1995-yilda tug‘ilgan, u hozir Samarqand shahridagi akademik litseyning 2-kursida o‘qiyapti. Ukam – Donaboyev Otabek, 1998-yilda tug‘ilgan, Samarqanddagi 45-o‘rtta maktabning 9-sinfida o‘qiyapti.

Men 2007-yilda o‘rtta maktabni bitirdim va shu yili Turkiya Respublikasining Istanbul shahridagi Qosimo‘g‘li Jo‘shqin litseyining 1-kursiga o‘qishga kirdim va uni 2010-yilda muvaffaqiyatli bitirdim. Hozir Toshkent shahridagi Singapur Menejment Universitetida o‘qiyapman.

Manzilim: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 37-uy.

## OILAVIY NONUSHTA

Har kuni tongda barchamizni bobom va buvim uyg‘otadilar. Ular – keksa odamlar, shuning uchun barvaqt uyg‘onadilar, yuvinib-taranadilar va namoz o‘qiydilar. So‘ngra bizni bir-bir uyg‘otadilar. Ko‘p yillardan beri buvimming “Turaqolinglar, bolam, tong otdi, nonushta qilib, ish va o‘qishlaringa jo‘nanglar”, degan ovozlarini har kuni eshitaman. Biz uyqudan turgandan keyin yuvinamiz va kiyinamiz. Keyin nonushta tayyorlashni boshlaymiz. Oshxonamizdagi katta stolga non, choy, qaymoq, meva va shirinliklarni qo‘yamiz. Oyim bilan men birga shirchoy va quymoq pishiramiz.

- Zarnigor, muzlatgichdan sariyog‘ni olib dasturxonga qo‘y, - deydi oyim.
- Oyijon, dasturxonga hamma narsani qo‘yib bo‘ldim. Nonushta tayyor, -deyman barcha narsalarni dasturxonga qo‘ygandan keyin.
- Oybek, dadang, buving va buvangni nonushtaga chaqir. Men shirchoy olib kiraman, - deydi onam akamga.
- Xo‘p, oyijon. Hozir chaqiraman,- deydi akam.
- Ana dadam, buvim va buvam keldilar. Hammangizga osh bo‘lsin! –deyman men.

Barchamiz ishtaha bilan nonushta qilamiz. Oyim, buvim va buvam shirchoy ichadilar. Dadam, men va akam quymoq yeymiz. Choy bilan shirinlik yeyishni ham kanda qilmaymiz.

Nonushta tugaganidan keyin buvam dasturxonga duo o‘qiydi. Hamma o‘rnidan qo‘zg‘aladi va o‘z ish va o‘qishiga jo‘naydi.

## ISH VA O'QISHGA KETISH

Dadam va oyim har kuni ertalab ishga ketadilar. Men singlim bilan mактабга ketaman. Akam universitetga jo'naydi. Bizni uyimiz darvozasi oldida buvam va buvim kuzatib qoladilar. Buvim uzun duo qilib: "Yaxshi borib kelinglar, bolam. O'qish va ishlaringda muvaffaqiyat yor bo'lsin", deydi.

Dadam va oyim bizlarni mashinada maktabga va universitetga olib boradilar. Maktab uyimizga yaqin, ammo universitet uyimizdan ancha uzoq.

Oyim shifokor, shuning uchun u kasalxonaga ketadi. Dadam haydovchi, u shahar ichi avtobusini haydaydi. Buvam esa har kuni mahalla idorasiga boradi. U kishi mahalla oqsoqollaridan biri.

Uyimizda buvimming yolg'iz o'zi qoladi. U – nafaqaxo'r, shuning uchun u uyda o'tiradi. Buvim biz ish va o'qishdan kelguncha shirin-shirin taomlar tayyorlab qo'yadilar.

Barcha bizning oilamizga havas bilan qaraydi.

## MAHALLAMIZDAGI ODAMLAR

Biz "Lolazor" mahallasida yashaymiz. Mahallamiz shahar markazidan uzoqdadir. Qo'shnimiz Ilyos aka maktabda ishlaydi. U 45 yoshda, kasbi – o'qituvchi. U har kuni soat 8 da ishga ketadi. Tushdan keyin soat 5 da ishdan keladi. Boshqa qo'shnimiz Rahmatjon – qassob. U 32 yoshda. Rahmatjon go'sht do'konida ishlaydi. U ertalabdan oqshomgacha odamlarga go'sht sotadi.

Mahallamiz raisi Sayfulla aka – xushmuomala odam. U barchaga birday. Sayfulla aka mahallamizda yashovchi insonlarga faqat yaxshilik qiladi. Shundan uni hamma hurmat qiladi. Mahallamizda odamlar inoq yashaydilar.

*Matnga ko 'ra savollar tuzing va javob qaytaring. Namuna:*

A: Biz qayerda yashaymiz?

B: "Lolazor" mahallasida.

## SALOMLASHISH ODOBI

*Husain Voiz Koshifly*

Salom – salomatlik ma’nosini ifodalaydi. Agar sendan necha hollarda salomlashish kerak, deb so‘rasalar yetti holatda, deb javob ber. Birinchi: yor-u-do‘stlarni, aka-ukalarni ko‘rganda salomlashish kerak. Ikkinci: jamoat joylariga borganingda salom berishing lozim. Uchinchi: biror xonadonga borsang, u yerga salom berib kirgin. To‘rtinchi: bir yerda jam bo‘lib o‘tirgan kishilar davrasiga kirsang, salomlashgin. Beshinchi: kishilar huzuridan ayrilayotganingda ham salomlashishni unutma, uni vidolashish salomi (xayr-u-xo‘s) deyiladi. Oltinchi: maqbaraga, qabristonga borsang, salom ber. Yettinchi: o‘z xonadoningga kirganingda ham oila a’zolaringga salom berishni kanda qilma.

Hammomda salom berilmaydi. Hojatga chiqqan kishilarga, baland ovoz bilan qiroat qilayotgan odamlarga salom bermaydilar. Otliq piyodaga, turgan odam o‘tirganlarga salom berishi kerak.

Kichiklar kattalarga, yolg‘iz odam jamoat bo‘lib turganlarga salom beradi. Salom berayotgan kishi ochiq chehrali bo‘lishi darkor. Imo-ishora bilan emas, ovoz chiqarib salomlashish kerak.

### Savol va topshiriqlar

1. Salom so‘zi qanday ma’no ifodalaydi?
2. Salomlashishda nimalarga e’tibor berish kerak?
3. Qayerda va qanday hollarda salom berilmaydi?
4. Salomlashishda qanday mezonlarga amal qilinadi?
5. Salomlashish va salom berishning yetti holati haqida so‘zlab bering.

## BIZNING UYIMIZ

Bizning uyimiz Bobur ko‘chasida joylashgan. U ikki qavatli, 18-uy. Biz shu uyning 2-qavatida yashaymiz. Uyimizda xonalar ko‘p. Mehmonxona, bolalar xonasi, yotoqxona va oshxonalar bor. Keng dahlizdan yuvinish xonasi, oshxona va ayvonga chiqiladi. Dahlizda kiyim javoni va katta oyna bor.

Uyimiz menga juda yoqadi. Dadam, onam, akam va men bu uyda ahil yashaymiz. Hammamiz gullarni yoqtiramiz. Shuning uchun deraza tokchalarida har xil gullar ko‘p. Onam uy jihozlarini ozoda saqlaydilar.

Akam bilan men bolalar xonasida turamiz. Bu xonada 1 ta divan, 1 ta kitob javoni, 1 ta yozuv stoli va 2 ta stul, 2 ta karavot bor.

Dadam to‘tiquishlarni yaxshi ko‘radi. Shu sababli uyimizda to‘tiquish bor. To‘ti qafasi ayvonimizda turadi.

## **SEN YASHAYDIGAN UY**

Sen yashaydigan shaharda ko‘p qavatlari uylar juda ko‘p. Sen ana shu uylarning birida yashaysan. O‘z uyingni juda yaxshi ko‘rasan. Sen uyingning atrofi ozoda, ko‘rkam bo‘lishini juda-juda xohlaysan. Shuning uchun ham sen va oila a’zolarining zina va yo‘laklarni doimo tozalaysizlar. Turli chiqindilarni maxsus axlat qutisiga tashlaysizlar.

Uying atrofi toza, chiroyli bo‘lsa, sen xursand bo‘lasan. Boshqalar bu narsalarga beparvo bo‘lganlari uchun uylari atrofida har xil chiqindilar xunuk bo‘lib yotadi. Bunday joylar odamlarga yomon ta’sir ko‘rsatadi.

Sen hech qachon devorlarga chizmaysan, yozmaysan. Boshqalar-chi? Ular ham ozoda, chiroyli uylarda yashashni xohlaydilarmi? Buning uchun nima qilish kerak?

## **MENING XONAM**

Bizning uyimiz ikki qavatli. Birinchi qavatda oshxonan, vannaxona, hojatxona, dam olish xonasi va mehmonxona joylashgan. Ikkinci qavatda esa oilamiz a’zolarining xonalari joylashgan. Mening xonam ham ikkinchi qavatda joylashgan. Bu qavatda uzun yo‘lak bor. Yo‘lakning chap tomonida oyim va dadamning xonalari. O‘ng tomonda opamning xonasi, uning yonida mening xonam. Mening xonam kichik, ammo shinam. Xonamning derazasidan mакtabimiz ko‘rinadi. Xonamda divan, yozuv stoli, 2 ta stul va kiyim javoni bor. Menga xonam juda yoqadi.

## **KUCH - BIRLIKDA**

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, ko‘p qadim zamonda, Boysun degan tomonda bir donishmand chol yashagan ekan. Uning uch o‘g‘li bor ekan. Bu uch aka-uka ahil emas ekan va tez-tez urishib, janjallahish turar ekanlar. Bir kun donishmand

chol “ men bir kun yoshimni yashab, oshimni oshab o‘lsam, bu uch aqslsiz o‘g‘il bir-biri bilan qirpichoq bo‘ladi-ku. Bir chora ko‘rishim kerak”, deb o‘ylabdi.

Chol bir kuni o‘g‘illarini yoniga chaqiribdi va ularni boqqa olib chiqibdi. “Qani, o‘g‘illarim, debdi chol, bir nechta chiviq sindirib olib kelinglar-chi!” O‘g‘illari daraxtlardan chiviq sindirib olib kelibdilar. Chol ulardan birini qo‘liga olib, o‘g‘illariga qarab “qaranglar”, debdi va osonlik bilan sindiribdi. So‘ngra o‘g‘illari olib kelgan chiviqlarning hammasini to‘plab, sindirmoqchi bo‘libdi. Sindirishga kuchi yetmabdi. O‘g‘illariga “qani, Sizlar sindirib ko‘ringlar-chi?” debdi. O‘g‘illari ham qanchalik harakat qilishmasin, chiviqlarni sindira olishmabdi.

“Mana, ko‘rdingizmi, o‘g‘illarim, debdi chol shunda, chiviqlarni alohida-alohida sindirish juda oson. Ular birlashganda esa – sindirib bo‘lmaydi. Sizlar ham ahil bo‘lsangiz, birlashsangiz, hech bir dushman Sizni yenga olmaydi. Chunki, kuch – birlikda va ahillikda”.

Cholning o‘g‘illari bu gapning mazmunini yaxshi tushunishibdi. Ular o‘z oralarida birlik va ahillikning yo‘qligi baxtsizlikka olib kelishini tushunibdilar. “Kuch – birlikda”, degan gap o‘sha davrdan qolgan ekan.

## BOZORDA SAVDO QILISH

O‘zbekistonda bozorda xarid qilish, xaridor bo‘lish bir oz nozik ish. Chunki, bozordan narsa sotib olayotganda mollarni tanlash, sotuvchi bilan narxni tushirish uchun savdolashish, uzoq vaqt bozor aylanish va barcha kerakli narsalarni shu yerdan olish kerak.

Yulduz ismli qiz o‘n olti yoshda. U hali bozorga borib xarid qilishni yaxshi bilmaydi. Ammo u bu ishni o‘rganishi kerak. Chunki oila hayotida bozor-o‘char qilish muhim o‘rin tutadi.

Yulduzning dadasi bilan oyisi dam olishga ketishgan. Shu sababli u uyda buvisi bilan qoldi. Bugun oyisi bilan dadasi qaytib kelishadi. Buvi va nabira bugungi kunga bayram dasturxonni tayyorlashmoqchi. Ular somsa va palov pishirishmoqchi. Darsdan keyin Yulduz va buvisi bozorga borishmoqchi.

Yulduz darsdan kelsa, buvisi kasal ekan. Bozorga Yulduzning o‘zi boradigan bo‘ldi. Buvisi nabirasiga narsalarni qanday xarid qilish haqida maslahatlar berdi:

1. Sotib olmoqchi bo‘lgan narsalarning ro‘yxatini yozib ol.
2. Bozorda xushmuomala bo‘l!
3. Faqat o‘zingga yoqqan meva va sabzavotning narxini so‘ra.
4. Olmoqchi bo‘lgan go‘sht, guruch, un, meva va sabzavotning sifatiga e’tibor ber!

Shunday qilib, Yulduz bozorga bir o‘zi ketdi. U bozorga kelgach oldin go‘sht rastasiga bordi. U qassobdan 1 kilo qo‘y go‘shti va 2 kilo mol go‘shti oldi. Go‘sht narxini tortishsa ham, pasaytira olmadi.

Keyin guruch rastasiga o‘tdi va 3 kilo yirik guruch oldi. Guruchning narxini biroz tushirib oldi va bundan xursand bo‘ldi. Keyin meva-cheva va sabzavot rastasiga o‘tib pomidor, bodring, ko‘katlar sotib oldi. Bularning narxi arzon bo‘lgani uchun narxni tortishmadi. Shu rastadan olma, anor, nok va uzum oldi. Mevalar ham arzon edi.

Rosa 3 soatlik bozor-o‘chardan keyin Yulduz uyiga qaytdi. U charchagan, ammo birinchi marta mustaqil bozorda xarid qilganidan xursand edi.

## KASAL DO‘STGA YORDAM

Qish kunlaridan birida do‘stim Abror kasal bo‘lib qoldi. Uning tomog‘i qattiq og‘rigan edi. Boshi og‘ridi. Isitmasi chiqdi. Abrorning ukasi biznikiga kelib, uning kasalligini aytdi. Men undan xabar oldim. Uyda hech kim yo‘q edi. Opasi ishdan kelib shifikorni chaqirdi. Doktor kelib, uni tekshirdi va dori yozib berdi. Dorini har kuni bittadan uch mahal ichishni tayinladi.

Shuningdek, Abror issiq to‘shakda yotishi, mevalar yeyishi, tez-tez tomog‘ini chayqashi lozim ekan. Kasallik qaytalanmasligi uchun u issiq kiyinishi, boshi, oyog‘i va bo‘ynini issiq tutishi lozim. Faqat qaynoq choy ichishi kerak. Sovuq suv, muzqaymoq yeyish qat’ian mumkin emas.

Men Abror tuzalguncha unga uy vazifalarida yordam berdim. Har kuni uning yoniga borib, birga dars tayyorladim. Sinfimizdagi yangiliklardan xabardor qildim. Abror mendan juda minnatdor bo‘ldi.

## HAYVONOT BOG'I

Yakshanba kuni dadam, ukam va men hayvonot bog'iga bordik. Hayvonot bog'i shaharning chekka qismida, qir va o'rmon bag'rida joylashgan.

Biz u yerda turli hayvonlar, xilma-xil qushlar, ko'plab baliqlar va boshqa jonivorlarni ko'rdik. Biz ulkan hayvon deganda faqat filni bilar edik. Begemot ham juda katta hayvon ekan. Tuyaqush qush bo'lsa ham, faqat yerda yashar, uchmas ekan.

Katta-katta akvariumlardagi baliqlar dunyoning turli dengizlaridan keltirilgan. Dengiz toshbaqasi ham ular orasida. Timsoh esa loyqa suv ichida yotibdi.

Hayvonot bog'ida cho'milayotgan oq ayiqni, chiroyli patlarini yozib turgan tovusni, sho'x maymunni, uxbab yotgan sherni ko'rdik.

Ukam to'tilarni ko'rmagan ekan. Ularni rosa tomosha qildi. Ayniqsa, filning xartumi, jirafaning bo'yni, tovusning qanoti, laylakning oyog'i, o'rdakning panjasini juda qiziq ko'rindi.

Hayvonot bog'idagi hayvonlarga ovqat berish mumkin emas. Biz hayvonlarga ovqat bermadik. Yirtqich hayvonlarning kataklariga yaqinlashmadik. Biz ularni uzoqdan tomosha qildik.

Dadam bizga jonivorlar haqida qiziqarli hikoyalar ham aytib berdi. Biz hayvonot bog'idan xursand bo'lib qaytdik.

## **ORZUGA AYB YO‘Q**

“Yaxshi niyat – yarim davlat”, degan maqol bor. Buning ma’nosi – agar yaxshi niyat qilsang, murodingga erishasan, demakdir.

Bir kambag‘al odam har doim “menga Xudo bir kuni, ehtimol, rahm qilar – boylik, uy-joy ato etar”, deb niyat qilar ekan. Kunlarning birida uning atigi bir dona lotereyasiga eng yirik yutuq chiqibdi. Natijada u bir kunda mahallaning eng boy odami bo‘lar, niyatlariga erishar ekan.

Bir farzandsiz er-xotin bola ko‘rishni orzu qilar va “Xudo vaqt kelib balki bizga ko‘p o‘g‘il-qiz berar”, deb orzu qilar ekanlar. Xudoga ularning iltijosi yetib borgan ekan-u, ularning oilasida ust-ustiga 3 marta egizak farzandlar tug‘ilar ekan. Kechagina farzandga zor oila 3 o‘g‘il, uch qizli bo‘lar va murodiga yetar ekan.

“Orzuga ayb yo‘q”, degan yana bir maqol bor. Buning ma’nosi – yaxshilikni orzu qilgan odamni ayblab bo‘lmaydi, demakdir. Orzu insonning qanotidir. Go‘zal orzular insonni mehnatga, yaratishga, ijod qilishga yetaklaydi, ulardan esa orzularning ro‘yobga chiqishi boshlanadi. Shunday emasmi?

## **IV BO'LIM**

### **O'ZBEKISTON**

### **O'ZBEKISTON**

O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan. Vatanimiz keng va bepoyon. Vatanimizning sharqiy va janubi-sharqiy qismida Tyan-Shan, Oloy, Turkiston, Hisor va Zarafshon tog'lari bor. G'arbiy va shimoli-g'arbiy qismida yam-yashil vodiylar, katta daryolar, o'rmonlar, cho'l va sahrolar bor.

O'zbekiston – serquyosh o'lka. Yilning 250-300 kuni havo ochiq va oftobli bo'ladi. O'zbekiston turli foydali qazilmalarga boy. Oltin, mis, qo'rg'oshin, ruh, tabiiy gaz, neft kabi foydali qazilmalar ko'p. Vatanimiz o'zining paxtasi, pillasi bilan mashhur. Dehqonlarimiz yetishtiradigan poliz ekinlari va mevalar dunyoning turli yerlariga yuboriladi.

O'zbekistonning 12 ta viloyati bor:

1. Toshkent viloyati
2. Samarqand viloyati
3. Andijon viloyati
4. Farg'ona viloyati
5. Namangan viloyati
6. Sirdaryo viloyati
7. Jizzax viloyati
8. Navoiy viloyati
9. Buxoro viloyati
10. Xorazm viloyati
11. Qashqadaryo viloyati
12. Surxondaryo viloyati

Shuningdek, mamlakatimiz tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi ham bor.

Vatanimiz aholisi – ko‘p millatli. Mamlakatimizda o‘zbeklar bilan bir qatorda qoraqalpoqlar, ruslar, qozoqlar, tojiklar, qig‘izlar, turkmanlar, uyg‘urlar, koreyslar ham yashaydilar. Ular mamlakatimizning teng huquqli fuqarolaridir. O‘zbekistonda turli millat vakillari inoq va do‘sit bo‘lib yashaydilar. Biz o‘z Vatanimizni sevamiz.

## VATAN

Vatan! Bu – nima? Nima uchun biz ona-Vatan deymiz? Chunki inson tug‘ilib o‘sgan yer uning Vatanidir. Har birimiz Vatanimizning bir zarrachasimiz. Vatan inson tug‘ilib o‘sgan uydan, ko‘chadan, shahardan boshlanadi. Vatan – biz o‘ynab yurgan tuproq ko‘cha. Biz qayerga bormaylik, shu uyimizni, ko‘chamizni, shahrimizni sog‘inib qaytamiz. Bizning Vatanimiz – O‘zbekiston.

Kishiga Alloh taolo uchta boylik ato etadi: kuch-sog‘liq, aql-tafakkur, boylik. Asl boylik qaysi biri? Pul – keladi, ketadi. Kuch – keladi, ketadi. Aql-tafakkur esa qoladi, chinakam boylik shudir. Agar shu boylikni tug‘ilgan yering, Vataning ravnaqi uchun ishlata olish nasib etsa, o‘zingni baxtliman, desang bo‘ladi...

## TOSHKENT

Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti. Toshkent – O‘rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri. Toshkent mustaqillik yillarida ayniqsa obodonlashdi va ko‘rkamlashdi. Uning ko‘chalarini kengaydi, yangi zamonaviy binolar qurildi. Hozirgi vaqtida “Interkontinental”, “Dedeman” kabi zamonaviy mehmonxonalar, “Toshkentlend” bolalar bog‘i, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Ezgulik arki shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turibdi. Shaharda zamonaviy binolar bilan birga tarixiy obidalar ham ko‘p.

Bugungi kunga kelib Toshkent eng ko‘rkam va zamonaviy shaharlardan biriga aylandi.

## **TOSHKENTLEND**

Toshkentlend 1995-yil 2-iyulda tashkil etilgan. Toshkent shahri markazida, Bo‘zsuv kanali qirg‘og‘ida joylashgan.

Toshkentlendda “Akva-park”, “Bolalar bog‘i”, “Osma yo‘l” kabi majmualar mavjud.

Bu yerda turli attraksionlarda uchasisz, “Afrika safari”da o‘zingizni yovvoyi tabiat qo‘ynida his qilasiz. Suv havzalarida qayiqchada sayr qilib, suv attraksionlaridagi qiziqarli o‘yinlarda qatnashasiz. Do‘konlardan turli o‘yinchoqlar xarid qilasiz va yaxshi taassurotlar bilan uyga qaytasiz.

## **“YOSHLIK” TALABALAR SHAHARCHASI**

Mustaqillik yillarida Toshkentdagi “Yoshlik” talabalar shaharchasi poytaxtimizning eng obod va go‘zal hududlaridan biriga aylandi.

Bu yerda keyingi vaqtida keng ko‘lamdagи qurilish, ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Natijada qisqa fursatda shaharcha butunlay yangi ko‘rinishga ega bo‘ldi. Bu yerda oxirgi yillarda qurilgan talabalar turar-joylari, sport inshootlari, xizmat ko‘rsatish obyektlari ko‘zni quvontiradi.

“Yoshlik” talabalar shaharchasi hududda qirq ikki mingdan ziyod talaba-yoshlар yashaydi. Shaharchada Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent Tibbiyot akademiyasi singari nufuzli oliy o‘quv yurtlari, litsey va kollejlar – jami 24 ta’lim muassasasi joylashgan. Ularda qariyb 45 ming talaba-o‘quvchi ta’lim olmoqda. Shaharcha hududidagi 38 talabalar turar-joyida 10 mingdan ziyod yigit-qiz istiqomat qiladi.

Bu yerdagi ko‘plab savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, poliklinika, umumiy ovqatlanish muassasalari talaba-yoshlarga xizmat ko‘rsatib kelayotir.

Talabalar turar-joylari talaba-yoshlarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'mirlanib, ularda zamonaviy shart-sharoitlar yaratilgan. Kompyuter va Internet xonalari, kutubxona, oshxona, sport zallari tashkil etildi. Talabalar turar-joylaridagi har bir xonada ikki nafar talaba istiqomat qiladi.

Talabalar turar-joylaridagi qulayliklar zamonaviy mehmonxonalar nikidan kam emas. Boshqacha aytganda, ko'pchilik tasavvuridagi, derazayu oynalari sinib, eshigu devorlari puturdan ketgan, zax anqib yotgan befayz "yotoqxonalar" va bugungi talabalar turar-joylari o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor.

Shaharchada yoshlарimizning porloq kelajagini o'ylab amalga oshirilayotgan ezgu ishlar talabalar bilan bir qatorda ota-onalarning ham quvonchiga quvonch qo'shmoqda. (*Gazetadan*)

## O'ZBEK TAOMLARI OSHXONASI

Bu yer Toshkentdagi mashhur "Chig'atoy" o'zbek milliy taomlari oshxonasi. Oshxonada doimo odam ko'p. Bu yerdagi mazali taomlardan yeish uchun odamlar nonushta, tushlik va kechki ovqat vaqtida tashrif buyuradilar.

Nonushtaga issiq somsa bilan non olish mumkin. Norin, qaynatma sho'rva va yaxna go'st ham xo'randa sevgan ovqatlardan. Shuningdek, nonushtada yeish uchun go'shtli, kartoshkali, qovoq somsalar bor. Ularning hammasi mazali. Nonushtada moxora, mastava, moshxo'rda kabi suyuq ovqatlarni issiq-issiq ichganga nima yetsin?

Tushlik ovqat uchun oshxonaning chaqqon oshpazlari katta doshqozonda palov pishiradilar. O'zbekistonda palovning 30 dan ortiq turi bor. "Chig'atoy" oshxonasi oshpazlar toshkentcha va andijoncha palov pishiradilar.

Oshxona hovlisiga qo'yilgan qo'ralarda qo'y va qoramol go'shtidan kaboblar pishiradilar. O'zbekistonda kabobning ham o'nlarcha turi bor. "Chig'atoy" oshxonasi dagilar qiyma, parcha va dumba kaboblari pishiradilar.

O'zbek xo'randa xamir ovqatlarni yaxshi ko'rishadi. Chuchvara, manti, lag'mon, beshbarmoq kabi ovqatlar kesilgan xamirdan qilinadi. Bu taomlarni tushlik va kechki ovqatda yeish mumkin.

“Chig‘atoy” oshxonasida kechki ovqatga kabob va xamir ovqatlar qatorida qovurdoq, dimlama, hasip kabi ovqatlar tayyorlanadi.

Bu oshxonaga Siz ham tashrif buyuring! Bu yerda pishiriladigan ovqatlardan to’ya-to’ya yeng!

## TO‘YLARIMIZ HAQIDA O‘YLARIMIZ

O‘zbek xalqining paydo bo‘lish tarixi qanchalik qadimiy bo‘lsa, uning milliy urf-odatlari, marosimlari ham shunchalik teran tarixiy ildizga ega. Ular xalqning ma’naviy ehtiyojlari zamirida paydo bo‘lib, shakllanib borgan. Milliy an'analarimiz o‘z mazmunida xalqning orzu-o‘ylari, istaklari, turmush tarzi, axloq normalarini mujassam etadi. Shuning uchun ham bir xalq, elat, millat, ularni ko‘z qorachig‘idek avaylab-asrab, taraqqiy ettirmog‘i, kelgusi avlodlarga ma’naviy qadriyat sifatida yetkazmog‘i lozim. Darhaqiqat, an'analar, urf-odatlar, marosimlar va bayramlar millatning ma’naviyati, qadriyatlarning ajralmas qismidir. To‘y va ma’rakalar ana shunday qadriyatlardandir.

To‘y oilaviy bayram bo‘lsa-da, u barcha qarindosh – urug‘, mahalla-ko‘y, do‘sst-u birodarlar bilan baham ko‘riladi. Albatta, bu ijobjiy hol. U kishilarda hamjihatlik, ahillik, mehr-oqibat, insonparvarlik kabi fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

To‘yda xalqimizning milliy mentaliteti, o‘zligi tom ma’noda aks etadi. Lekin to‘ylar xalqimizning ma’naviy yuksalishda qanchalik ijobjiy rol o‘ynamasin, uni o‘tkazish bilan bog‘liq ba’zi ortiqcha rasm-rusumlar, odat tusiga kirib borayotgan sun’iy udumlar jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta’sirini o‘tkazadi. Jumladan, bola-chaqasini yaxshi yedirib-ichirmaslik, kiyintirmaslik evaziga tejalgan mablag‘, katta miqdorda qarz olish hisobiga dabdabali to‘y o‘tkazishga intilishlar ota-onalar va yoshlarni qiyin ahvolga solmoqda. Ba’zan to‘yning ertasi kuni boshlanadigan yo‘qchilik va qo‘ydi-chiqdilarning zamirida shu behuda dabdababozlik yotmoqda.

Bozor munosabatlari sharoitida oson pul topib, uni manmanlik orzu-havaslari uchun sarf etgan ba’zi boyvachchalarga ergashib kamtarin mehnatkash oilalar og‘ir ahvolga tushmoqda. Katta restoranlarda qilingan

500-1000 kishilk to‘ylar va nahor oshlari, ko‘chalarda katta tezlikda yurgan 30-40 mashinali to‘y eskortlari, kelin-kuyovlarga va og‘ayni-qarindoshlarga qilingan o‘nlab sarupolar aslida isrofgarchilikdan boshqa narsa emas. Bu dabdaba va xarajatlar yoshlarning ma’naviy kamolotiga va kelajagiga xizmat qilmaydi.

Albatta, bunday soxta obro‘ orttirish ortidan quvgan kishilarni mahalla-ko‘y va mahalliy hokimiyat vakillari tartibga chaqirishlari kerak.

O‘zbek to‘ylari xalqimizning an'analariga mos ravishda, qulay, ixcham shaklda o‘tkazilishi kerak.

(*Gazetadan*)

## SAMARQAND

Hozirgi O‘rta Osiyo va O‘zbekiston hududlari eng qadimgi zamonlardan beri dunyo sivilizatsiyasining markazlaridan biri sifatida mashhurdir. Bu mintaqadagi Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrисabz, Marg‘ilon, Xo‘jand, Chimkent, O‘sh, Termiz kabi shaharlar ko‘p ming yillik tarixga egadir. Bu shaharlar Buyuk Ipak Yo‘lida qurilgan eng qadimgi shaharlardir.

Xususan, Samarqand – jahoning eng qadimi shaharlaridan biri, u Rim, Afina, Vavilon kabi qadimi shaharlarning tengdoshidir. O‘tmishning shoirlari va tarixchilari Samarqandni «Yer yuzining sayqali», «Sharqning beba ho durdonasi», «Sharqning Rimi» kabi go‘zal o‘xshatishlar bilan ta‘riflaganlar.

Samarqand shahri eng qadimgi zamonlarda Marokand nomi bilan yuritilgan. O‘rta asrlarda esa shaharning nomi afsonaviy Turkiy podsho – Afrosiyob nomi bilan bog‘landi. Samarqand shahri haqida uni eramizdan oldingi 329-yilga ishg‘ol qilgan Iskandar Maqduniyning (*Macedonian Alexander*) tarixchilari ham hayratlanib yozadilar.

VI-VII asrlarda Samarqand Turk hoqonligining muhim savdo va madaniyat markaziga aylangan.

1220-yil bahorida shaharni Chingisxon qo‘shinlari qo‘lga olib, uni butunlay buzib tashlaganlar.

XIV asr – XV asrlarda Samarqand Amir Temur tomonidan yaratilgan, Volgadan Gang daryosigacha, Tyan-Shan tizmasidan Bosfor bo‘g‘ozigacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga olgan ulkan davlatning poytaxti bo‘ladi.

Amir Temur poytaxti Samarqandni dunyoning eng katta va go‘zal shahriga aylantirishni orzu qilar edi. Shu sababli u Samarqandda yuzlab madrasa, masjid, bozor, hammom, chorsu, savdo rastalari, maqbaralar qurdi. Samarqandga Amir Temurning bepoyon davlatidan minglab olimlar, ustalar, hunarmandlar, shoirlar, rassomlar ko‘chirib keltirilgan edi. 15-asrda Samarqand haqiqatan ham dunyoning eng chiroyli, ulkan va gavjum shahri edi. 15-asr boshida Samarqandga kelgan Ispaniya elchisi Klavixo Samarqandni Yevropadagi eng katta shaharlardan ham ikki-uch baravar katta ekanligi haqida yozadi.

Amir Temurning nevarasi – buyuk olim va podsho Mirzo Ulug‘bek bobosining yaratuvchilik ishlarini davom ettiradi. U Samarqandda birinchi universitetni – Ulug‘bek Madrasasini (1420) hamda Ulug‘bek Rasadxonasini (1425) qurdiradi. Bugungi Samarqand Davlat universitetining tarixi Ulug‘bek Madrasasi bilan boshlangandir. U dunyoning eng qadimiy universitetlaridan biridir.

Zamonaviy Samarqand – aholisining soni va hududining kattaligi, sanoat ahamiyatiga ko‘ra O‘zbekistonning Toshkentdan keyingi ikkinchi o‘rinda turuvchi shahri bo‘lib, u jahon turizmining markazlaridan biridir. Samarqandda mingdan ziyod tarixiy obidalar saqlangan.

2007-yilda UNESCO qaroriga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Farmoniga ko‘ra Samarqand shahrining 2750 yilligi tantanali qutlandi. O‘zbekistonning Mustaqillik bayrami arafasida o‘tkazilgan bayram tantanalarida dunyoning 50 dan ziyod mamlakatlaridan kelgan delegatsiyalar ishtirok etdi.

## **AMIR TEMUR**

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida va bu mintaqadagi sivilizatsiyaning taraqqiyotida buyuk davlat arbobi, qo‘mondon va siyosatchi Amir Temurning muhim o‘rni bor. Shu bilan birga, Amir Temur Iskandar Maqduniy, Attila,

Napoleon, Sulton Sulaymon, Bismark kabi mashhur shaxslar qatorida jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgandir.

Temur 1369-yil 9-aprelda Shahrисabzda tug‘ilgan. Eng yoshlik chog‘laridanoq ilmgan va harbiy san‘atga havasi kuchli bo‘lgan Temur 9-10 yoshlарida «Qur‘on»ni yod oladi, qilichbozlik, o‘q otish sirlarini mukammal egallaydi.

Amir Temur siyosat maydoniga chiqqan davrda Turkistonda mo‘g‘ullarga qarshi kurash boshlangan edi. O‘z yurtining ashaddiy vatanparvari bo‘lgan Temur xalqning ozodlik kurashiga boshchilik qildi. U 1369-yilda Turkistonning amiri etib saylandi. U davlat tepasiga kelgach, birinchi navbatda xalqini va Vatanini mo‘g‘ul zulmidan ozod qildi. Turkistonda fan va madaniyatning, savdo-sotiq va hunarmandchilikning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi. «Buyuk Ipak Yo‘li»ni qaytadan tikladi va uni Xitoydan O‘rta yer dengizigacha bo‘lgan qismini o‘z himoyasiga oldi.

Amir Temur dunyo tarixida eng buyuk davlatlardan birini qurdi. Amir Temur davlatining chegaralari Hind daryosi bo‘ylaridan Qora dengizgacha, Oltoy tog‘laridan Marmara dengizigacha bo‘lgan yerlarni qamrab olgan edi. Bu buyuk davlatning poytaxti Samarqand shahri edi. Temur o‘z davlatining poytaxtini dunyoning markaziga aylantirishni orzu qilar edi. Haqiqatan ham Amir Temur davrida Samarqand dunyoning eng katta va obod shaharlарidan biri edi. Amir Temur dunyoning eng katta shaharlari Samarqand qarshisida qishloq kabi, degan tushuncha bilan shaharning yaqinlaridagi qishloqlarga Damashq, Parij (Forish), Qohira, Madrid (Motrid) deb nom bergen edi.

Amir Temur va temuriylar davrida Samarqandda qurilgan yuzlab binolar dunyoda eng go‘zal va mukammal san‘at obidalaridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun hozirgacha saqlanib qolgan Bibi Xonim masjidi, Go‘ri Amir Maqbarasi, Ulug‘bek Madrasasi, Shohi Zinda kompleksidagi ba‘zi maqbaralarga qarash kifoyadir.

Amir Temur fan va san‘atning, til va adabiyotning buyuk himoyachisi edi. Temur va temuriylar davrida o‘zbek va tojik tillarida yaratilgan buyuk adabiy asarlar – Navoiy va Jomiyning «Xamsa» asarlari, Ulug‘bekning «Ziji Ko‘ragoniy» yulduzlar jadvali, Behzodning ajoyib rasmlari, Boburning «Boburnoma»si, minglab matematika, astronomiya, meditsina va falsafaga doir asarlar Turkistondagi so‘ngi buyuk sivilizatsiyaning shoh asarlaridir.

Amir Temur 1405-yil 18-fevralda, Xitoya qilgan so‘ngi yurishi paytida vafot etdi. U qurgan buyuk davlat 16-asrning boshigacha yashadi. Temurning nevaralaridan biri – Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda qurgan Boburiylar davlati esa temuriylar davlatining davomchisi o‘laroq 1858-yilgacha hukm surdi.

### VATANIM

Chaman-chaman gullarga  
Sayroqi bulbullarga,  
Ko‘kni quchgan uylarga,  
Baxt keltirgan to‘ylarga,  
Quvnoq va sho‘x kuylarga,  
Joydir go‘zal Vatanim,  
Boydir go‘zal Vatanim.

### O‘ZBEKİSTONIM

Qancha diyorlarda sayr etib yurdim,  
Qancha manzillarda tuzdim oshiyon.  
Va buyuk hikmatga axir yuz burdim,  
Siylangan joyida azizdir inson.  
Yurtim senda ekan nasibam tugal,  
Sen o‘zing maskanim, sen o‘zing jonim  
Sen onam, sen singlim, yorimsan azal.  
Ey jonim, jahonim O‘zbekistonim!

Vatan – ona, Vatan chamandir,  
Vatan – quyosh, Vatan osmondir.  
Vatan – she‘rdir, Vatan xayoldir,  
Vatan – tuproq, Vatan iymondir.

Shirin xo‘rsinishga kerakdir Vatan,  
So‘g‘inchdan titrashga kerakdir Vatan.  
Bag‘riga qaytishga kerakdir Vatan,  
Onam deb aytishga kerakdir Vatan.

## **MAQOLLAR VA HIKMATLI SO‘ZLAR**

### **MAQOLLAR**

Ayrilmagin elingdan,  
Quvvat ketar belingdan.

Vatan gadosi – kafan gadosi.

Vatan uchun o‘lmoq ham sharaf.

Vatan qadrini bilmagan o‘z qadrini bilmas.

Ona yurting omon bo‘lsa,  
Rangi ro‘ying somon bo‘lmas

### **HIKMATLI SO‘ZLAR**

Ona yurting – oltin beshiging.

Bulbul chamanni sevar,  
Odam – Vatanni.

O‘zga yurtda shoh bo‘lgandan, o‘z yurtingda gado bo‘lgan afzal.

Ona yerning tuprog‘i – ona sutidan aziz.

## V BO'LIM.

### TABIAT, O'SIMLIK VA HAYVONOT DUNYOSI

#### BOG'

Mana katta va chiroyli bog'. Bu bog'da daraxtlar ko'p. Bog'da gullar ham bor.

Bog'da bolalar ko'p. Bir necha bola va bir qiz ishlayapti. Bitta qiz va bir bola o'ynayapti. Ikki bola va bitta qiz kitob o'qiyapti.

Ana G'ayrat, Mehri. Qudrat va Turg'un ishlayaptilar. Mana Halima va G'ani o'ynayapti. Ular shaxmat o'ynayaptilar. Ana G'ofur va Tursunoy kitob o'qiyapti.

#### CHUMOLILARNING FOYDASI

Tabiatdagi hasharotlar, odatda ikki guruhg'a ajratiladi: zararli va foydali hasharotlar. Masalan, asalari, ipak qurti, chumoli foydali hasharotlardir. Pashsha, chivin, suvarak zararli hasharotlardir.

Chumolilar, odatda to'p-to'p bo'lib yashaydilar. Shuning uchun ular yozda ko'p ovqat g'amlashadi. Chumolilar mayda qo'ng'iz va kapalak qurtlarini yeydi. Ular o'rmon va bog'larni turli zararkunandalardan asrashadi.

#### BUG'DOY

Bug'doy yurtimizning asosiy boyliklaridan biri. Bug'doy kuzda ekiladi. Uni ekishdan oldin yer shudgor qilinadi. Bug'doy qishi bilan yer ostida unadi. Bahorda esa u ko'm-ko'k maysaga aylanadi, bo'y cho'zadi va boshoq tugadi. Boshoqlar to'lishganda hosilni yig'ish boshlanadi. Bug'doy tegirmonga tushguncha dehqonlar katta mehnat qilishadi.

Bug'doy inson uchun eng kerakli ne'mat. Chunki bug'doy unidan non pishiramiz. Non – dasturxonimizning ko'rki.

## **QUSHLAR BIZNING DO‘STIMIZ**

O‘zbekistonda qushlar ko‘p. Ular yoqimli sayraydi. Dala va dashtlardiagi qurt-qumursqalarni yeb, bizga foyda keltiradilar.

Biz qushlar bayramini o‘tkazamiz. Men bayramda xuddi bulbuldek sayrayman. Ilhom kakku bo‘lib sayramoqchi. Zokir sa’va, bedana, Zamira to‘ti bo‘lmoqchi.

Alibek burgut, lochin, musicha, chumchuq, qaldirg‘och, qarg‘a nomlarini aytmoqchi.

Kaklik, boyqush, kaptar kim bo‘ladi? Albatta, qushlar ovozini taqlid qilishni biladigan sinfdoshimiz Samad bo‘ladi.

Bayramda qushlar haqida she’rlar va ertaklar ham aytildi. Biz chizgan qushlarning rasmlari ham namoyish qilinadi.

## **QUSH TILINI BILADIGAN QIZCHA**

Leypsigda yashovchi Greta ismli 8 yashar qiz qushlar tilini tushunar ekan. U qushlarning suhbatini eshitgan zahoti ular nima demoqchi ekanini tushunar ekan. Bir kuni tadqiqotchi olimlar Greta bilan birqalikda Leypsig hayvonot bog‘iga borishibdi.

Greta bu yerdagi daraxtlarning shoxlaridagi rang-barang qushlarning suhbatiga qulqoq tutibdi. “Qushlar juda isib ketishibdi”, debdi u mitti to‘tiquushlarga ishora qilib, hozir cho‘milishga borishar emish. Chindan oradan bir lahma o‘tmay to‘tiquushlar “gurr” etib ko‘tarilishibdi. Hovuzning favvorasiga uchib borib, so‘ng maza qilib suvgaga sho‘ng‘ib-sho‘ng‘ib olishibdi.

## **QARG‘A VA ZOG‘CHA**

Qarg‘a va zog‘cha diyorimizda qishda yashaydigan qushlardir. Ular o‘lkamizga kuz kirishi bilan uchib kelishadi. Ularning osmonda gala-gala bo‘lib uchishini ko‘rganmisiz? Xo‘sish, qayerga qo‘nib, qayerlarda yashashini bilasizmi?

Kuzda uchib kelgan qarg‘a va zog‘chalar dala hamda bog‘larda yashashadi. Chunki shu joylarda ular o‘z “vazifa”larini bajarishadi. Ayting-chi, bu qushlar qanday foyda keltirishadi?

Bilasizki, yozda har xil hasharotlar ko‘payadi. Ular sovuq tushishi bilan tuproqqa, xashak va xazonlar orasiga yashirinib olishadi. Keyin shu joylarda in qo‘yishadi. Qarg‘a va zog‘chalar ana shu hasharotlarni terib yeyishadi. Shudgor qilingan dalalarni tozalab berishadi.

## O'Z O'RNI BOR

Bog'bon bog'dagi atirgulni ko'rib xursand bo'lib ketibdi:

- Muncha chiroyli bo'lmasang!

Buni ko'rib anjir o'ksinibdi va:

- Mening gulim g'unchamning o'zida yetiladi. Uni hech kim ko'rolmaydi,

- debdi. Bog'bon esa unga qarab:

- Har narsaning o'z o'rni bor, vaqt-soati bor, - debdi. Kunlar o'tibdi. Anjir mevalari g'arq pishganda bog'bon ularni terib savatga solibdi:

- Muncha asal bo'lib ketmasang! - debdi.

Endi terak o'ksinibdi:

- Mening na gulim bor, na mevam...

Bog'bon unga:

- Har narsaning o'z o'rni bor, vaqt-soati bor, - debdi.

Ko'p o'tmay bog'bon bog' o'rtasiga shiypon solishga ahd qilibdi. Keyin terak yoniga kelibdi.

- To'g'ri o'sganing uchun rahmat. Juda ustun bo'lishga bopsan. – debdi.

Terakning ham bog'da va hayotdagi o'rni shu tarzda belgilangan ekan.

(Ertakdan)

## TABIATNING JONLI BEZAGI

Chamanzorlarga nazar tashlang. Nozik, nafis kapalaklar guldan-gulga qo'nib, chiroyli manzaralar yasaydilar. Raqsga tushgandek turli harakatlar qiladilar. Yaxshilab razm solsangiz, ularning tuzilishi, shakli, rangi har xil. Shunchalik qaraganda kapalaklar yallo qilib uchib yuribdi-ku, deb o'ylash mumkin. Lekin aslida bunday emas. Bitta kapalakni diqqat bilan kuzatsangiz, u qancha-qancha yo'l bosadi.

Kapalak shirinlikka o'ch bo'lsa-da, hamisha "ish bilan band". Guldan-gulga qo'nib, shirin nektar toplash bilan birga o'simliklarni urug'lantiradi. Bir gulni yaxshilab o'rganib bo'lgach, boshqasini izlab ketadi. U yer uzra pastlab uchib hamisha shoshgani shoshgan. Mabodo yo'lida bir to'siqqa duch kelsa, yuqoriga ko'tariladi-da, birozdan keyin yana pastlab uchadi. Kapalaklar juda foydali hasharot. Ularga aslo azob bermaslik kerak.

## **OB-HAVO DARAKCHILARI**

Yoz oylarida mayda chivinlar uchib yursa, ertasiga havo ochiq bo‘ladi.

Kunduzlari issiq, kechalari sovuq bo‘lsa, ertalab shudring tushganini ko‘rasiz.

Uy hayvonlari va parrandalar lohas bo‘lib, tez-tez nafas olsalar, harorat ko‘tariladi.

Yoz oyining kechalari osmonda somon yo‘li yulduzlarini aniq ko‘rsangiz, ertasi kuni havo musaffo bo‘lishi aniq.

Quyosh botayotganda havoda bulut paydo bo‘lsa, ertasi kuni havo o‘zgaradi.

## **TABIATDAN O‘XSHATMALAR**

Insonlar odamlardagi yoki narsalardagi xususiyatlarni ko‘pincha tabiatdagi turli narsalarga o‘xshatadilar. Chunki inson juda ko‘p narsani tabiatdan oladi, odam bolasining o‘zi ham tabiatning farzandidir.

Masalan, bir mustahkam narsani ko‘rsak, “toshday qattiq” deymiz. Chunki, tosh insonlar uchun qattiqlik timsoliga aylangan.

Agar oppoq gul yoki matolarni ko‘rsak “qordek oppoq” deymiz, chunki odamlar uchun qor beg‘uborlik, tozalik timsolidir.

Do‘kondan yoki muzlatgichdan sovuq suv yoki ichimlik olib ichsak, uni “muzday sovuq” deymiz, chunki muzdan sovuq narsalarni insonlar yaqin vaqtlargacha bilmas edilar.

Odamlarga bo‘lar-bo‘lmasga tirg‘aladigan kishilarni ba’zan “yelimday yopishqoq” deymiz, chunki yelimda yopishqoqlik xususiyati kuchli.

Mazali ovqat va yeguliklarni “asalday shirin” deymiz. Chunki, asaldek totli narsa kam uchraydi.

O‘xhatishlar ba’zan hayvonlarga nisbatan ham bo‘ladi. Masalan kuchli va qo‘rqmas insonlarni “arslon kabi baquvvat” deymiz.

Quv, hiylagar insonlarni “tulkiday ayyor” deymiz. Tulki hayvonot dunyosida eng shum maxluq bo‘lgani uchun ayyor insonlar unga o‘xhatiladi.

Daraxtlardan esa faqat terakgina o‘xhatishlarda ishtirok etadi – bo‘yi daroz insonlarni “terakday bo‘ychan”, deydilar.

## **O'ZBEKISTON VA HINDISTONDA MEVALAR**

Kecha maktabimizga bir guruh hindistonlik sportchilar kelishdi. Ular bizga Hindistonda ham biznikiga o'xshagan mevalar o'sishi haqida hikoya qilib berishdi. Ularda ayni pishiqchilik payti bo'lgan yoz oylari dekabr-fevral ekan! Ularda ham O'zbekistondagidek qovun, tarvuz, uzum, bodring, pomidor, olma, nok kabi mevalar bor ekan.

Bundan tashqari u yerda kokos yong'og'i, ananas, kivi, banan ham o'sar ekan. Ananasning mazasi bizning qovunga o'xshar ekan. Lekin bu meva qovundan kichikroq, po'sti qalinroq va o'zi ham suvsizroq bo'lar ekan.

Hindistondagi barcha mevalar biznikiga qaraganda maydarroq, suvsizroq, shirini kamroq bo'lar ekan. Lekin kokos yong'og'ining ichida mag'iz o'mida shirin sharbat bo'lar ekan. Yong'oq teshilib, sharbat undan ingichka naycha bilan so'rib olinar ekan yoki idishga quyib ichilar ekan.

## **QORLI TOG'**

Yakshanba kuni sinfimiz o'quvchilari bilan birgalikda Chimyon tog'iga bordik. Kun sovuq edi. Qalin qor yog'gan. Tog' cho'qqisini oppoq qor va bulutlar qoplagan.

Tog' etagida bolalar va katta yoshdagi kishilar chana uchishdi. Yigit va qizlar tog' cho'qqisi tomon ketishdi.

Jamshid, Sarvar va Ravshan tog' manzaralarining rasmini chizishdi. Javlon va Salim qorbobo yasashdi. Qizlar esa ularga yordamlashishdi. Biz maza qilib dam oldik. Safarimiz so'ngida hamma bolalar esdalik uchun rasmga tushishdi.

## **TOQQA SAYOHAT**

Yoz oylarida O'zbekistonda ob-havo juda issiq bo'ladi. Issiq ba'zan 45-50 darajaga chiqadi. Shunday paytlarda shahardagi odamlar shanba va yakshanba kunlari salqinlash uchun toqqa sayohatga chiqishadi. Chunki, tog'larda havo salqin va tozadir.

Toshkent Iqtisodiyot universitetining 3-kurs talabalaridan bir guruhi ham yozgi semestr imtihonlaridan keyin, iyul oyi boshida Chimyon tog‘lariga salqinlash uchun sayohatga bordilar. Chimyon Toshkentdan 70 km uzoq yerdagi go‘zal bir maskan. Yam-yashil bog‘lari, o‘rmonlari, sersuv daryo va soylari bilan mashhur Chimyonda 2-3 kun dam olishga nima yetsin?

Talabalar Chimyonga yetib kelgach, avvalo daryo bo‘yidagi o‘rmon chetida bir nechta palatkadan iborat lager qurdilar. Daraxtlar soyasida o‘tirish va dam olish uchun joy hozirlashdi. Yigitlar o‘rmondan o‘tin to‘plashdi, qizlar daryodan suv keltirishdi. O‘choq qurib, qozon osib, lazzatli ovqatlar pishirishdi va yeishdi. Keyin bir oz dam oldilar.

Kechki salqinda yigit-qizlar o‘rmon va tog‘larga sayrga chiqdilar. Oqshomga yaqin horib-charchab lagerga qaytgan yoshlар gulxan yoqib, kabob pishirishdi. Keyin gulxan yorug‘ida o‘yin-kulgi boshlandi. Yigitlar rubob chalib, ashula aytishdi, qizlar raqsga tushishdi. Yoshlarning ovozi, kulgulari tog‘larda aks-sado berdi.

Ertasi kun talabalar tog‘ning eng yuqori qismiga – qorliklarga qadar chiqdilar. Ular o‘sha yerda iyul oyida qorbo‘ron o‘ynashdi.

Uch kun miriqib dam olgan talabalar shaharga yaxshi kayfiyat bilan qaytishdi.

## MUZQAYMOQNING TARIXINI BILASIZMI?

Qadim zamonlarda odamlar meva sharbatlariga muz va qor aralashtirib iste’mol qilganlar.

Bu ichimlikni Iskandar Zulqarnayn ham yaxshi ko‘rgan. Uning maxsus qullari shoh oshxonasiga muntazam ravishda tog‘ cho‘qqilaridan muz olib kelishgan.

XIII asrda italiyalik sayyoh Marko Polo Sharq mamlakatlarining biridan muzqaymoq tayyorlash usulini o‘rganib keladi. Tez orada muzqaymoq Italiyada podsho va saroy kishilarining sevimli taomiga aylanadi. Ammo muzqaymoq tayyorlash usulini sir saqlashadi. Saroy oshpazlari esa bu sirni oshkor qilmaslik haqida qasam ichadilar.

Oradan 400 yil o‘tgach, 1660-yilda italiyalik savdogar - Franchesko Prokonio ismli kishi muzqaymoq tayyorlash sirini bilib oldi. Italiyada muzqaymoq tayyorlagan kishini o‘lim jazosiga hukm qiladilar. Buni eshitgan Francesko Parijga qochib boradi va u yerda muzqaymoq do‘koni ochadi. Rossiyada esa muzqaymoq birinchi marta 1794-yilda tayyorlashgan.

## **GULLAR VA VAQT**

Gullar ham insonga o‘xshab dam oladi. Ular ma’lum vaqtgacha uyg‘oq bo‘lib, ochilib turadi. Keyin “ko‘zini yumib”, uxlaydi. Ertasi kuni o‘sha vaqtda yana ochiladi.

Ayrim gullar erta tongdan quyosh tik ko‘tarilguncha ochiq bo‘ladi. Umuman, gullarning ko‘pi kechasi “uxlab”, azonda soat 5 dan yarim kechagacha birin-ketin ochilib, yopilib turadi. Masalan, lolaqizg‘aldoq tonggi soat 4-5 lardan qorong‘i tushgunga qadar ochilib turadi.

Tamaki gullari, shu jumladan, namozshomgul kunduzi yopiq bo‘ladi. Ular faqat quyosh botganidan keyin to ertalabgacha chamanday bo‘lib ochilib, hid taratib turadi. Tungi binafsha ham quyosh botgandan keyin xushbo‘y hid tarqata boshlaydi. Na’matakning gullari esa erta bilan soat 9 lardan to kechgacha ochilib turadi.

## **KAMALAK**

Tong otdi. Yomg‘ir tindi. Bulutlar tarqaldi. Quyosh zarrin nurini sochdi. Singlim sevinib:

- Emin aka, uni qarang, - dedi.
- Zangori osmonda chiroyli kamalak ko‘rindi. U har xil rangda edi.
- Voy, buncha chiroyli, - dedi singlim.

Kamalak quyosh nurlarining mayda yomg‘ir zarralarida sinishi natijasida paydo bo‘ladi. Quyosh nurlari yetti xil rangga ajraladi va yarim aylana shaklida ufqlarga tutashadi. Natijada kamalak hosil bo‘ladi. Kamalak ranglari juda go‘zal va beg‘ubor.

O‘zbek xalqining beqasam kabi matolarida kamalak ranglari aks etgandir.

## **MAQOLLAR, HIKMATLI SO‘ZLAR VA TOPISHMOQLAR**

### **TOPISHMOQLAR**

Qorday oppoq  
Pardek yumshoq (*paxta*)

Kichkina dekcha,  
Ichi to‘la miixcha (*anor*)

## **VI BO‘LIM**

### **SPORT VA SOG‘LIK-SALOMATLIK**

#### **SPORT, SPORT, SPORT**

Agar tarixga nazar tashlasak, sportning boshlanishi qadim-qadimlarga borib taqaladi. Dunyo udumlarini bajarish bilan sportning boshlanishi bir bo‘lgan desak ham bo‘ladi. Hindular turli harakatlar qilib, xudodan yomg‘irni, hosil, shafqat talab qilib egilishar yoki o‘yinga o‘xshagan harakatlar qilishar edi. Bunday o‘yinlar ko‘proq ovchilar yoki harbiylar harakatini eslatar edi. Zamonlar o‘tishi bilan bu harakatlar raqsga aylanib, sportning gimnastika turi shakllandi.

Sport sog‘liqni mustahkamlaydi. Har bir kishi sport bilan shug‘ullanishi kerak. O‘g‘il bolalar futbol, kurash, boks bilan shug‘ullanishni yaxshi ko‘radilar. Qizlar ko‘proq gimnastika, tennisni tanlaydilar. Aytgandek, shaxmat va shashka ham sport o‘yinlaridir. Ko‘chada izlab top, quvlashmachoq o‘ynaganda siz yugurasiz. Arqon o‘ynaganda sakraysiz. Bunday o‘yinlarni o‘ynash juda foydali. Shunda tana a’zolaringiz yaxshi o‘sadi, baquvvat bo‘lasiz. Shuning uchun sportni seving! Sportning birorta turi bilan doimo shug‘ullaning.

Maktab yoki universitetingizdagi sport klublariga a’zo bo‘ling. U yerdagi trenerlar sizga sport sirlarini o‘rgatadilar.

#### **OLIMPIADA TARIXI**

Taxminan to‘rt ming yil aval misrliklarda sportning bir necha turlari mavjud bo‘lgan. Lekin yengil atletika Yunonistonda tarkib topgan. Ilk Olimpiya o‘yinlari eramizdan avvalgi 776-yilda Yunonistonda bo‘lib o‘tgani.

Sport qadimgi Yunonistonda juda muhim rol o‘ynagan. Har bir o‘g‘il bola yugurish, sakrash, kurash kabi sport turlari bilan jiddiy shug‘ullangan. Yunonlar doim “Sog‘lom tanda sog‘ aql” shiorini olg‘a surganlar.

Yunonlarda professional sportchilar, masalan, boks va kurash sohalarida hammani hayratga solgan.

Yunonistonda turli sport bayramlari bo‘lgan, lekin eng qadimiysi va muhimi Olimpiya o‘yinlaridir. Bu o‘yin dastlab Yunonistondagi Olimpiya tog‘larida o‘tkazilgani uchun Olimpiya o‘yinlari nomini olgan. Bu o‘yinlarda o‘n oylik tayyorgarlikdan o‘tgan, millati grek bo‘lgan yosh yigitlar qatnashganlar. O‘yinlar asosan yugurish va sakrash bo‘yicha bo‘lgan. Keyinchalik bunga sportning kurash, boks, disk irg‘itish va boshqa turlari ham qo‘shilgan.

1924-yildan boshlab Olimpiada o‘yinlariga yana bir yangilik qo‘sildi: qishki Olimpiada joriy etildi. Ular yozgilardan alohida, lekin bir sanada o‘tkaziladi. Qishki Olimpiadalarda chang‘i sporti, figurali uchish, muz ustida xokkey, biatlon bo‘yicha musobaqalar o‘tkaziladi.

Olimpiya o‘yinlarida o‘zbekistonlik sportchilar ham faol qatnashib, boks va kurash bo‘yicha musobaqalarda oltin va kumush medallarga sazovor bo‘lishgan.

## **SPORTCHI QIZLAR**

Yaqinda bizning sinfimizga ikkita yangi qiz qo‘sildi. Avval biz ularni egizaklar deb o‘yladik, familiyalari ham bir xil. Lekin ular amakivachchalar ekanlar. Birini ismi Nafisa, ikkinchisiniki Nasiba ekan. Nafisa Nasibadan 5-6 oycha kattaroq ekan. Nafisa Nasibadan ozg‘inroq, bo‘yi balandroq, yuzi cho‘zinchoq. Nasiba esa Nafisaga qaraganda sochi qoraroq va uzunroq, ko‘zi kattaroq, yuzining rangi oqroq ekan.

Ikkalasining fe’li ham bir xil ekan. Nafisa Nasibadan sergaproq, quvnoqroq, serharakatroq. Nasiba esa kamgaproq, bosiqroq ekan.

Nasiba voleybolni yaxshi o‘ynar ekan. Nafisa esa gandbol ustasi ekan. Ikkalasi ham juda tez yugurar ekanlar.

Stol tennisini Nasiba yaxshi o‘ynar ekan, Nafisa esa katta tennisda usta ekan.

Xullas, biz sinfimizga bu ikki sportchi qizning kelib qo‘silganidan xursandmiz. Biz ikkala opa-singil bilan do‘stlashib ketdik.

## **O‘ZBEK FUTBOLIGA NIMA BO‘LDI?**

O‘zbek futboli yildan-yilga rivojlanmoqda deb aytishmoqda. Nega unda Olimiya terma jamoamiz 2012-yilgi London Olimpiadasiga saralash turnirida Birlashgan Arab Amirliklari komandasiga yutqazib qoydi? Ayb kimda, trener Abramovdami? Yo komandadagi yoshlarimizdam? Yoki o‘z futbol ligalarimizdagi klublarning va stadionlarning ahvolimi, yoki raqobatmi?

Mamlakatimizda futbol yildan-yilga ommlashib bormoqda. Oliy liga va birinchi ligadagi klublarning stadionlari, tayyorgarlik bazalari yomon emas. O‘yinlarda stadionlar to‘la tomoshabin. Chet ellik mashhur sport ustalari taklif etilmoqda. Ammo terma komandamiz 1994-yilda Osiyo o‘yinlari championi bo‘lgandan so‘ng boshqa bunday yutuqqa erishilmadi.

- Sportning hech bir turi futbol kabi millatimizning nomini dunyoga tanitmaydi, - degan edi mamlakatimiz Prezidenti. Bu – haq gap. Shu sababli o‘zbek futboli ishqibozlari milliy terma komandamizdan g‘alabalar kutishga haqlidir. “Bunyodkor”, “Paxtakor” kabi kuchli komandalarimiz ham Osiyo championlari musobaqalarida nufuzli o‘rinlarini egallashi lozim.

Ana o‘sanda millionlab futbol ishqibozlari o‘zлari sevgan o‘yinchilardan mamnun bo‘ladilar, mamlakatimiz bayrog‘i ham dunyoning turli sport musobaqalarida ko‘tariladi, milliy g‘ururimiz yuksaladi.

## **SHAXMAT –AQL GIMNASTIKASI**

Shaxmat insoniyat kashf etgan eng qadimgi o‘yinlardan biridir. Odatdagи sport turlari kishining tana a’zolarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shaxmat esa insonning aqliy faoliyatini kuchaytiradi, fikrlash qobiliyatini oshiradi. Shu sababli shaxmatni aql gimnastikasi deydilar.

Shaxmat o‘ynaganlar nafaqat aqlini charxlaydi, balki ziyraklik va hushyorlik kabi xislatlarini ham o‘zlashtirib boradi. Shaxmat shunday o‘yinki, uni o‘ynash uchun faqat o‘ylab yurish kerak. Aslida uni o‘yin deb atab bo‘lmaydi. U bir san’atdir.

O‘zbekistondagi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati 2007-yildan buyon bir yaxshi an’anani yo‘lga qo‘ygan. Ya’ni yoshlar va o‘s米尔ar o‘rtasida “Kamolot shaxmat taxtasi” turnirini o‘tkazadi. Ushbu musobaqaning bu yilgi yakuniy – respublika bosqichi 19-21-yanvar kunlari Buxoro shahrida tashkil etildi. Bundan tashqari, taniqli san’atkorlar ishtirokida konsert dasturlari va shaxmat ustalari tomonidan mahorat mакtablari ham namoyish etildi. Musobaqada Toshkent shahri komandasi birinchi o‘rinni egalladi. Buxorolik va samarqandlik shaxmatchilar ikkinchi va uchinchchi o‘rinni egalladilar.

Umuman, mustaqillik yillarida mamlakatimizda shaxmat ancha rivojlandi. Hatto, hamyurtimiz Rustam Qosimjonov professional shaxmatchilar o‘rtasida jahon chempioni bo‘ldi. 2011-yilda Istanbulda o‘tkazilgan jahon shaxmat championatida esa O‘zbekiston komandasi faxrli 7-o‘rinni egalladi.

(*Gazetadan*)

## O‘QUVCHINING SHAXSIY GIGIENASI

Hamisha shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qiling! – Ertalab uyqudan turgandan so‘ng albatta yaxshilab yuvinish kerak. Har kuni ertalab va kechqurun tishlaringizni tozalab yuving. Ovqatlanishdan oldin va hojatxonadan chiqqandan so‘ng qo‘llaringizni sovunlab yuving.

Salomatligingiz o‘z qo‘lingizda ekanligini unutmang! Hamisha shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qiling!

Jumladan:

Ertalab uyqudan turgandan so‘ng albatta yaxshilab yuvinish kerak.

Har kuni ertalab va kechqurun tishlaringizni tozalab yuving.

Ovqatlanishdan oldin va hojatxonadan chiqqandan so‘ng qo‘llaringizni sovunlab yuving.

Uxlashdan oldin oyoqlaringizni yuving.

Doimo ozoda kiyimlarda yuring.

Ich kiyimlaringizni tez-tez almashtirib turing.

O‘rin-ko‘rpa, kiyim, oyoq kiyimlaringiz alohida bo‘lsin.

Oyoq yalang yurmang.

Tirnoqlaringizni kalta qilib olib yuring.

## **SOG‘LOM TURMUSH TARZI**

Sog‘lom turmush tarziga rioya qiling! Sog‘lom turmush tarzi quyidagilarga amal qilishdir:

- faol harakat tartibi;
- chiniqish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish;
- ovqatlanish, mehnat qilish, dam olish gigiyenasi;
- shaxsiy va jamoat gigiyenasiga rioya qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- shikastlanish va baxtsiz hodisalarining oldini olish;
- zararli odatlarning oldini olish;
- bir-biringizni hurmat qilish.

O‘z salomatligingizni saqlashni biling! Yodingizda tuting – birinchi boyligingiz bu sog‘lig‘ingizdir!

Yuqoridagi amallarni bajarsangiz, doimo sog‘lom bo‘lasiz!

## **DORIVOR O‘SIMLIKLAR**

Ko‘p kasallikkarni davolash uchun tabiat ne’matlaridan foydalangan yaxshi. Masalan, yo‘talni davolash uchun turpning suvini asalga aralashtirib ichish kerak. Grippdan saqlanish uchun isiriq tutatish, uning urug‘idan bir necha donasini suv bilan ichib yuborish kerak. Yaralarni davolash uchun bargizubdan yaxshi narsa yo‘q. Anorning suvi va po‘stining qaynatmasini ichburug‘ kasaliga qarshi qo‘llash kerak. Shamollaganda o‘pka yallig‘lanishining oldini olish uchun mingyaproq, ukrop, piyoz, sarimsoqpiyoz va na’matakdan foydalanish kerak.

Shuningdek, ismaloq, otquloq, yalpiz, marvaridgul, dalachoyi kabi o‘tlar ham shifobaxsh o‘simliklardir.

Bunday o‘simliklarni ildizi bilan sug‘urib olmaslik kerak. Chunki, ular har yili o‘sib chiqishi va boshqa insonlarning dardiga ham davo bo‘lishi kerak.

## OROMGOHLAR – CHINIQISH MAKTABLE

Jizzax viloyatidagi yozgi oromgohlarda bolalarning maroqli dam olib, ta’tilni mazmunli o’tkazishi uchun turli madaniy-ma’rifiy va ko’ngilochar tadbirlar, sport musobaqalari o’tkazilmoqda.

Forish tumani hududida joylashgan “Zangori olov”, “Jilg‘acha”, “Matlubotchi”, “Mirzacho’l”, “Koinot”, “Tabassum” oromgohlarida “Suzishni o’rganish – hayotiy zarurat” shiori ostida o‘g‘il-qizlar o‘rtasida suzish bo‘yicha musobaqalar bo‘lib o‘tdi. Bu musobaqalar mahorat sinoviga aylandi.

Cho‘milish paytidagi turli ko‘ngilsizliklar suzishni bilmaslik hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida yuz berishi ma’lum. Yozgi mavsumda suv havzalarida cho‘milish bolalarning sevimli mashg‘ulotidir. Shunga ko‘ra, barcha yozgi oromgohlarda “Suzishni o’rganish – hayotiy zarurat”, “Yosh qutqaruvchilar” tadbirlari o’tkaziladi. Ushbu tadbirlar doirasida bolalarga suzishni o’rgatish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari, musobaqalar hamda “Favqulodda vaziyatlar – bolalar tasavvurida” mavzuida rasmlar tanlovi tashkil etiladi.

## BOLANI CHINIQTIRISH

Bolani chiniqtirish deganda bolaga tabiiy hayot tarzini yaratib berishni tushunish kerak.

Tabiiy hayot tarzi tamoyillari quyidagilardir.

1. **Harakat.** Bola qancha ko‘p toza havoda harakat qilsa, shunchalik foydali bo‘ladi. Masalan, bola mакtabga avtobusda emas, balki piyoda borgani ma’qul. Kino ko‘rgandan ko‘ra, ko‘chada futbol o‘ynagani, yakshanba kuni uy yumushlari bilan shug‘ullangandan ko‘ra, tabiat qo‘yniga chiqqani ma‘quldir. Eng asosiysi harakat to‘rt devor orasida emas, balki ochiq havoda bo‘lishi kerak.

2. **Kiyim.** Kiyim terlatmaydigan bo‘lishi shart. Shamollashga sovqotishdan ko‘ra terlash ko‘proq sababchi bo‘ladi.

3. **Ovqatlanish.** Ishtaha bo‘lgandagina ovqatlanish lozim.

Agar siz bolangiz tabiiy ravishda chiniqqan bo‘lishini istasangiz quyidagilarga amal qiling:

1. Bolani har qanday havoda ko‘chaga olib chiqing.
2. Bolani harakatchan o‘yinlarga jalb qiling.
3. Uy jihozlarini tozalashda, kiyimlarni yuvishda kimyoviy preparatlardan iloji boricha kamroq foydalaning.
4. Bolani terlash darajasida kiyintirmang.
5. Ovqatni kuch bilan yedirmang.
6. Agar bola ko‘p kasal bo‘layotgan bo‘lsa, o‘qish jarayonini bo‘shashtiring (musiqa, chet tili, qo‘shimcha darslarni kamaytiring).
7. Bola xonasini changdan xoli qiling.
8. Toza havoga ko‘p olib chiqing.
9. Dengiz, o‘rmon va toqqa bolani ko‘proq olib boring.
10. Bola xonasini tez-tez shamollatib turing.

Bola chiniqish mashg‘ulotlaridan lazzatlanishi kerak, shuning uchun bola o‘zi xohlagan va tanlagan mashqlarni bajargani ma’qul.

Har qanday chiniqtirish ham bolani kasallikdan butunlay asray olmaydi. Lekin u kasallikning og‘irligini va davomiyligini bir necha barobar pasaytirishi mumkin.

## **MAQOLLAR, HIKMATLI SO‘ZLAR VA TOPISHMOQLAR**

### **MAQOLLAR**

Sog‘lom tanda sog‘ aql.

Boylikning boshi – sog‘liq.

Bola sog‘ligi – ona boyligi.

Kasalga so‘z yoqmas,  
Charchaganga – o‘yin.

Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi.

## **HIKMATLI SO‘ZLAR**

Omon bo‘lsang, olam seniki.

Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topilar.

Kasal – bitta, davosi – mingta.

Bilishni istasang,  
So‘rashdan tortinma.

## **TOPISHMOQLAR**

Oynachada ikki til,  
Erta-kech “chiq-chiq” deydi.  
“Yotaverma tong otdi,  
Tur, mакtabga bor”, - deydi (*soat*).

Qator-qator tishi bor,  
Boshimizda ishi bor (*taroq*)

## VII BO'LIM

### FANLAR

#### BIOLOGIYA. INSON ORGANIZMI

Olimlarning tasdiqlashicha, inson 100.000.000.000.000 ta (yuz trillion) hujayradan tashkil topgan. Solishtirish uchun: filni olsak, u 6.500.000.000.000.000 ta (olti yarim kvadrilion) hujayradan iborat.

Inson organizmining 60 foizi suvdan iborat, lekin suv tekis taqsimlanmagan. Yog‘ to‘qimalarining 20, suyaklarning 25, jigarning 70, mushaklarning 75, qonning 80 va miyaning 85 foizi suvdan tashkil topgan.

Tanamizdagи eng muhim unsurlar kislород, ugлерод, водород ва азотdir. Улар балоғат юшидаги киши гавдасининг кatta-кичиклигiga qarab, 70 kilogrammgacha vaznga ega. Bundan tashqari, kalsiy va fosfor ham ko‘p. Улар jamlansa, 2 kilogrammgaga yaqin chiqadi. Kaliy, oltingugurt, natriy, xlor bir necha o‘n gramm chiqadi. Inson tanasida 6 gramm temir moddasi bo‘lib u asosan gemoglobin tarkibida bo‘ladi.

Inson mushaklari sonini olimlar aniq aytib bera olmaydi. Odatda olimlarimiz 400 tadan 860 tagacha deb taxmin qiladilar. Mushaklar tana vaznining erkaklarda - 40, ayollarda - 30 foizini tashkil qiladi.

Tinch holatda yotgan inson daqiqasiga 12-20 marta nafas olib chiqaradi. 400-500 litr kislород yutadi. Boshqa jonzotlar bilan nafas olishni solishtirsak, otlar daqiqasiga 12, kalamushlar - 60, kanareyka - 108 marta nafas olib chiqaradi.

Katta yoshli odamning yuragi sutkasiga 10 ming litr qonni haydab beradi. Bir marta yurak qisqarganida aortalarga 130 millilitr qon haydaladi. Tinch, xotirjam turganda yurak daqiqasiga 70-72 marta uradi. Ayollarda 6-8 taga

ko‘proq. Solishtirish uchun: filning yurak urushi daqiqasiga 20, buqa - 25, qurbaqa - 30, xonaki quyon - 200, sichqon - 500 marta uradi.

Inson tanasidagi qon oqadigan tomirlarning umumiy uzunligi 100.000 km.

Inson asab tizimi taxminan 10 milliard nevronlardan tashkil topgan. Asab hujayralarining faqat 1 foizi “mustaqil ish” bilan mashg‘ul. Ya’ni, tashqi muhitdan hislarni oladi va mushaklar ustidan nazorat yuritadi. To‘qson to‘qqiz foizi esa oraliq hujayralar hisoblanib, kuchaytirgich va uzatgich vazifasini o‘taydi.

O‘ttizdan oshgandan so‘ng insonda kuniga 30-50 ming asab hujayralari nobut bo‘la boshlaydi.

Neyronlarning yarmidan ko‘pi katta miya yarim sharlarida joylashgan.

Bir daqiqada miyadan 740-750 millilitr qon o‘tadi.

Yosh ulg‘aygan sari miyaning hajmi kichrayib boradi. Erkaklarda miya vazni 20-29, ayollarda 15-19 yoshda yuqori vaznga ega bo‘ladi.

Qon hujayralari ham nobud bo‘lib turadi va o‘rniga boshqa yangilari paydo bo‘ladi.

Inson yuragi yoshga qarab puls urushini bilasizmi? Bir yoshlik bolada pulsning soni daqiqasiga 110 ta, 5 yoshda 90 ta, 10 yoshda 80 ta, 16 yoshdan boshlab 70-72 taga yetadi, ya’ni katta odamlarniki singari yurak pulsi ura boshlaydi.

Qon gruppalari hammada har xil ekanligini bilamiz, lekin I gruppaga qon 40 foiz, II gruppaga qon 39 foiz, III gruppaga qon 15 foiz, IV gruppaga qon 6 foiz odamda tarqalganini bilasizmi?

Chaqaloqlik davrida (1 oy) inson bolasi 22 soat, emadigan chaqaloq (1 oydan so‘ng) 18-19 soat sutkasiga uxlashini bilasizmi?

Biz yeydigan ovqatlar qaysi organizmlarimizdan o‘tishini bilasizmi? Bu jarayon quyidagi tartibda bo‘ladi: og‘iz bo‘shlig‘i → halqum → qizilo‘ngach

→ oshqozon (oshqozon osti bezi) → (jigar) o‘n ikki barmoqli ichakka o‘t suyuqligini quyadi → o‘n ikki barmoqli ichak → ingichka ichak → yo‘g‘on ichak → to‘g‘ri ichak → anal teshigi. Bu jarayonda oziq-ovqatlar molekulyar darajagacha parchaladi.

Terimizdagi tuklar har 50 kunda, kipriklar har 3-5 oyda almashinadi. Sog‘lom odamning sochi bir kecha kunduzda 0,4 mm o‘sadi, ayollarning bir tuk sochi 100 gramm yuk ko‘tara oladi.

Boshdan soch bir kunda 40-60 tacha to‘kiladi, umr bo‘yi esa 1,5 mlndan ortiq soch tolasi tushadi. Bu - me‘yoriy hol.

Odam uxlamasdan 10 kecha kunduz, ovqat yemasdan esa 1 hafta yashashi mumkin.

## KIMYO

Korroziyaning bir necha turi mavjud bo‘lib, ulardan eng mashhuri metall korroziysi - “zanglash”dir. Unda albatta metall, suv va kislorod qatnashadi.

Rus ximik olimi Mendeleev, neftni yoqilg‘i sifatida pechkada yoqish, qog‘oz pullarni pechkada yoqish bilan barobardir, degan edi. Chunki, neft yoqilg‘i emas, uning komponent tarkibi shunaqa boyki, hatto atrofingizda turgan jismlarning sal kam 60 %i neft mahsulotidir. Neftni qayta ishlab va undan komponentlar ajratib olinsa, Mendeleev aytgan iborada to‘g‘ri bo‘lib chiqadi.

Ma’lumki moddalar to‘rt holatda uchraydi:

1. Qattiq
2. Suyuq
3. Gaz
4. Plazma

## MATEMATIKA

### UCH QISHLOQ

Bir mamlakatda Rostgo‘ylar, Yolg‘onchilar, rostgo‘ylar va yolg‘onchilar aralash yashaydigan Aralash qishloqlari bor ekan. Mos ravishda, birinchi qishloqda faqat rostgo‘ylar, ikkinchisida faqat yolg‘onchilar, uchinchi qishloqda esa har ikki toifa aralashib istiqomat qilishar ekan. To‘satdan o‘t o‘chirish idorasiga qo‘ng‘iroq bo‘libdi:

- Bizning qishloqqa o‘t ketdi.
- Siz qayerda yashaysiz?
- “Aralash” qishlog‘ida.

**Savol:** O‘t o‘chiruvchilar qaysi qishloqda yashaydi?

### MATEMATIK NECHA YOSHDA ?

Bir kuni ikki matematik uchrashib qolibdi. Hol ahvol so‘rashgach birinchi matematik do‘stidan so‘radi:

- Hozir necha yoshdasiz ?

Ikkinci matematik javob berdi:

- Men tug‘ilganda otam 25 yoshda edilar, hozir otam va mening yoshimizni qo‘shsak 89 bo‘ladi.

**Savol:** Matematik necha yoshda?

### AHIL SINF

Bizning sinfda 35 o‘quvchi bor. Har birimiz roppa-rosa 11 ta sinfdoshimiz bilan do‘stmiz.

- Buning bo‘lishi mumkin emas, - dedi darhol Ahmad o‘rtog‘iga.

Va u haq edi. Nega?

## **HARORAT**

Harorati - 3 C bo‘lgan 2 litr suvga, harorati - 5 C bo‘lgan 10 litr suvni qo‘shsak, bu suvning harorati qanday bo‘ladi?

**Dunyoda eng katta hududga ega davlatlar ro‘yxati :**

- 1-o‘rinda Rossiya - 17.075.200 km.kv
- 2-o‘rinda Kanada - 9.976.140 km.kv
- 3-o‘rinda AQSH - 9.929.091km.kv
- 4-o‘rinda Xitoy - 9.596.960 km.kv
- 5-o‘rinda Braziliya - 8.511.965 km.kv

**Dunyoda eng ko‘p aholiga ega davlatlar ro‘yxati :**

- 1-o‘rinda Xitoy - 1.306.313.812 kishi
- 2-o‘rinda Hindiston - 1.080.264.388 kishi
- 3-o‘rinda AQSH - 300.734.134 kishi
- 4-o‘rinda Indoneziya - 241.973.879 kishi
- 5-o‘rinda Braziliya - 196.112.794 kishi

## **TARIX**

**Tarixning takrorlanishi. Bu raqamlarga nima deysiz?**

Napoleon 1760-yilda tug‘ilgan. Gitler esa 1889 yilda olam yuzini ko‘rgan. Bular o‘rtasidagi farq - 129 yil.

Napoleon 1804 yilda hokimiyat tepasiga kelgan. Gitler esa 1933 yilda hokimiyatga kelgan. Buning farqi ham 129 yilga teng.

Napoleon Rossiyaga 1812-yilda hujum qilgan edi. Gitler esa 1941-yilda yilda urush boshladidi. Buning farqi ham 129 yil.

Har ikkisi ham davlat hokimiyati tepasiga 44 yoshida kelgan. Har ikkisi ham Rossiyaga hujum qilganida 52 yoshda bo‘lgan.

Har ikkisi ham Rossiyaga hujum qilganida mag‘lubiyatga uchragan.

Buni qiyidagi jadvaldan yaxshiroq tushunish mumkin:

Nº	Voqealar	Napoleon	Gitler	farq
1	Tug‘ilgan yili	1760	1889	129
2	Hokimiyat tepasiga kelgan yili	1804	1933	129
3	Rossiyaga hujum qilgan yili	1812	1941	129
4	Hokimiyat tepasiga kelgandagi yoshi	44	44	o‘xhash
5	Rossiyaga hujum qilgandagi yoshi	52	52	o‘xhash

### AQShning ikkala prezidenti tarjimai holidagi o‘xhashliklar

Avraam Linkoln 1860-yilda birinchi AQSh prezidenti bo‘lgan edi. Kennedi esa 1960-yilda prezidentlik saylovida yutib chiqib, shu lavozimni egalladi. O‘rtadagi farq 100 yilni tashkil etadi.

Linkoln o‘limidan keyin Jonson ismli kishi prezident bo‘lgan. Kennedi o‘limidan keyin ham uning o‘rinbosari bo‘lgan Jonson ismli kishi hokimiyat tepasiga kelgan.

AQShning bu ikki prezidenti tarjimai-holida boshqa o‘xhashliklar ham bor. Ularning ikkovi ham AQShning jamubiy shtatidan bo‘lib, demokrat va prezident bo‘lgunga qadar senator bo‘lishgan.

Linkolnning o‘rinbosari bo‘lmish Jonson 1808-yilda tug‘ilgan. AQSh prezidenti Kennedi o‘limidan keyin uning o‘rnini egallagan Jonson esa 1908-yilda tug‘ilgan. Bularning o‘rtasidagi farq ham 100 yilga teng.

Linkolnning qotili Uilis 1829-yilda tug‘ilgan edi. Kennedining qotili hisoblangan Osvald esa 1929-yilda tavallud topgan. Bu yerdagi farq ham 100 yilga teng.

Har ikkala qotil ham sud boshlangunga qadar o‘ldirilgan. Prezident Kennedining kotibining ismi Linkoln bo‘lgan. Prezident Linkoln kotibining ismi Kennedi bo‘lgan.

## GEOGRAFIYA

Odamlar qadim-qadimdan jamoa-jamoa, qon -qardosh bo‘lib yashab kelishgan. Ana shunday birliklarning eng muhim ularning irqiy va etnik birliklaridir.

Irq bu odamlarning kelib chiqishi, gavda tuzilishi va qiyofasi o‘xshash bo‘lgan tarixan tarkib topgan hududiy birligidir.

Asosiy katta irqlar va aralash irqlar formalarning geografik tarqalishi bilan qisqacha tanishib o‘tamiz.

**Yevropeoid irqi:** dunyo aholisining 40% ni o‘z ichiga oladi. Bu katta irq 3 guruhgaga “**shimoliy yevropeoid, o‘rta yevropeoid, janubiy yevropeoid**” guruhlariga bo‘linadi.

1) Shimoliy Yevropada yashovchi shimoliy guruh vakillarining bo‘yi novcha, sochi (jingalak) sariq, ko‘k ko‘zli bo‘ladi.

2) O‘rta Yevropeoid. Bu guruh vakillari sochlari silliq, yuz tuzilishi, gavda tuzilishida keyingi qaydlarda farq yuzaga kelmoqda.

3) Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika, Old Osiyo, Shimoliy Xindistonda yashovchi janubiy guruh vakillarining bo‘yi novcha, terisi qorachadan kelgan, sochi qora, ko‘zi qora bo‘ladi.

**Mongoloid irqi:** dunyo aholisining 20%ini o‘z ichiga oladi. Mongolid irqi ham ikki guruhgaga bo‘linadi: Osiyo va Amerika guruhlari.

Osiyo guruhi ichida bir-biridan farq qilivchi tillar bor. Mongoloid irqining Amerika avlodiga Shimoliy va Janubiy Amerikaning tub aholisi - “hindular” kiradi. Mongoloid irqining asosiy belgilari: tanasining rangi bug‘doy rang, ko‘zlar qisiq, yonoqlari bo‘rtib chiqqan, sochlari to‘g‘ri bo‘ladi.

Mongoloid irqining Osiyo tarmog‘i ham Shimoliy va Janubiy Mongoloid irqiga ajratiladi.

**Negroid irqi:** Dunyo aholisining 15%ini o‘z ichiga oladi. Asosiy irqiy belgilari: terisining rangi qora, sochlari qora va jingalak, burni keng, lablari qalin. Negroid irqi ham ikki tarmoqqa ajratiladi: Afrika va Okeaniya tarmoqlari. Afrika tarmog‘iga Sahroi Kabirdan janubda yashaydigan xalqlar - “negrlar” kiradi. Okeaniya tarmog‘iga esa melaneziyaliklar, Yangi Gvineya kakoslari, Avstralaliyaning tub xalqlari kiradi.



O‘zbekcha O‘qish Kitobi  
Reader of the Uzbek Language  
ILCAA Intensive Language Course 2013: Uzbek, Textbook 2

ウズベク語リーダー<sup>1</sup>  
平成 25 年度言語研修 ウズベク語研修テキスト 2

平成 25 年 7 月 26 日 発行

著者 Jo‘liboy ELTAZAROV, Zarnigor DONABOYEVA

発行 東京外国語大学  
アジア・アフリカ言語文化研究所  
〒183-8534 東京都府中市朝日町 3-11-1  
TEL. 042-330-5600

印刷 日本ルート印刷出版株式会社  
〒135-0007 東京都江東区新大橋 1-5-4  
TEL. 03-3631-3861

©Jo‘liboy ELTAZAROV, Zarnigor DONABOYEVA  
ISBN 978-4-86337-134-7



ISBN 978-4-86337-134-7

